

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI

O‘ZBEK FILOLOGIYASI FAKULTETI

“Himoyaga tavsiya etilsin”

Fakultet dekani

_____ S.Abdullayev

“ _____ ” _____ 2018-y.

5120100 – Filologiya va tillarni o‘qitish ta‘lim yo‘nalishi IV kurs 402-guruh
talabasi Ashurova Nasibaning “**Alisher Navoiyning nasriy asarlarida tarixiy
shaxslar obrazi**” mavzusida yozilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:

_____ f.f.d., prof. N.Jabborov,
O‘zbek adabiyoti tarixi va matnshunoslik
kafedrasini mudiri

Taqrizchi:

_____ f.f.n. S.Hasanov,
O‘zRFA O‘zbek tili, adabiyoti va
folklori instituti katta ilmiy xodimi

“Himoyaga tavsiya etilsin”

O‘zbek adabiyoti tarixi va matnshunoslik
kafedrasini mudiri

_____ f.f.d. prof. N.Jabborov

“ _____ ” _____ 2018-y.

TOSHKENT-2018

Alisher Navoiyning nasriy asarlarida tarixiy shaxslar obrazi

Mundarija:

Kirish.....

Ibob. Alisher Navoiyning nasriy asarlarida tarixiylik mavzusi

1.1. Alisher Navoiyning nasriy asarlari haqida ma'lumot.....

1.2. "Holoti Sayyid Hasan Ardasher" asarida tarixiylik mavzusi...

II bob. Alisher Navoiyning nasriy asarlarida obraz va obrazlilik

2.1. "Holoti Pahlavon Muhammad"

asarida tarixiy obraz talqini.....

.....

2.2. "Xamsat ul-mutahayyirin" damanqabaviylik va obrazlilik.....

Xulosa.....

Foydalanilgan adabiyotlar.....

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi.Obraz va obrazlilik badiiy adabiyot mavjudligining eng asosiy shartlaridan. Zero, obraz deganda “inson ongida in'ikos etilgan voqea-hodisalargina emas, balki shu bilan birga so'z vositasida san'atkor tomonidan anglangan, qayta ishlangan va tasvirlangan hayot tushuniladi”¹. Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy nazmiy asarlarida obraz qanchalik yuksak mahorat bilan yaratilgan bo'lsa, nasriy asarlarida ham shunchalik fasohat mahsuli ekanligi bilan alohida ajralib turadi. Tarixiy obraz esa ijodkordan alohida mas'uliyat bilan yondashuvni talab qiladi. Chunki unda tarixiy shaxs, uning siyratiga xos eng muhim xususiyatlar, qahramonning ma'rifiy-ruhiy olami badiiy qayta ishlanishi, yuksak badiiyat bilan tasvirlanishi talab qilinadi. Hazrat Alisher Navoiyning “Holoti Sayyid Hasan Ardasher”, “Holoti Pahlavon Muhammad”, “Xamsat ul-mutahayyirin” kabi asarlarini ayni shu ilmiy muammo - tarixiylik va obrazlilik nuqtai nazaridan o'rganishga bag'ishlanganligi ushbu bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarb ekanligini ko'rsatadi.

Alisher Navoiy nasriy asarlarining qahramonlari buyuk mutafakkirning o'zi bilan bir davrda yashagan, uning shaxs va ijodkor sifatida kamolga erishuviga katta ta'sir ko'rsatgan siymolar. Mazkur asarlarni o'rganish ham biografik, ham tarixiy ahamiyatga ega ekanligi ularni tahlil etish ilmiy ehtiyoj ekanligidan dalolat beradi. Badiiy obraz borliqning badiiy asardagi aksi ekanligi, biror badiiy obraz o'sha borliqning oddiygina aksi emas, balki san'atkor ko'zi bilan ko'rilgan va ideal asosida ijodiy qayta ishlangan aksi ekanligi e'tiborga olinsa, ulug' adibning nasriy asarlarini bitiruv malakaviy ishida qo'yilgan ilmiy muammo asosida o'rganish zarurati kun tartibiga chiqadi. Masalaning bu jihati ham bitiruv malakaviy ishi mavzuining dolzarb ekaniga dalil bo'la oladi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi.Alisher Navoiy ijodi har doim adabiyotshunoslikning e'tiborida bo'lgan. Buyuk mutafakkirning nasriy asarlarini

¹ Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – T.: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004. 32-bet.

o'rganishda akademik Aziz Qayumov tadqiqotlarining o'ziga xos o'rni bor. Olimning "Nodir sahifalar. Navoiyning kam o'rganilgan ba'zi asarlari to'g'risida"² deb nomlangan kitobida buyuk adib nasriga doir e'tiborga molik kuzatishlar amalga oshirilgan. Professor Natan Mallaevning oliy o'quv yurtlari uchun "O'zbek adabiyoti tarixi" darsligida garchi o'sha davr mafkurasining ta'siri sezilsa-da, Alisher Navoiyning nasriy merosi tahliliga alohida sahifalar ajratilgan³. Professor Suyuma G'anievaning "Navoiy nasri nafosati" asari buyuk mutafakkir nasriy merosini o'rganishda alohida ahamiyatga ega⁴.

Filologiya fanlari nomzodi Qodirjon Ergashevning Alisher Navoiy nasriga doir ilmiy tadqiqotlari⁵ boshqa olimlar fikrlarini takrorlamasligi, adib nasriy asarlarining badiiyati, uslub xususiyatlari o'rganilganligi bilan ajralib turadi.

Yuqorida zikr etilgan tadqiqotlar va darsliklar hazrat Alisher Navoiy nasriy merosini o'rganishda katta ahamiyatga ega bo'lgani shubhasiz. Lekin bu ilmiy ishlarda buyuk adib nasriy asarlarida tarixiy shaxslar obrazi masalasi yetarli o'rganilgan emas. Ushbu bitiruv malakaviy ishi ana shu masalaga bag'ishlangan.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi. Alisher Navoiyning nasriy asarlarida tarixiy obrazlar talqining o'ziga xosligi, buyuk adibning zamondoshlari obrazini yaratishdagi mahorati sirlarini o'rganish ushbu bitiruv malakaviy ishining asosiy maqsadidir.

Bitiruv malakaviy ishining vazifalari quyidagilardan iborat:

- Alisher Navoiyning nasriy asarlarida tarixiylik tamoyilining aks etishi masalasini o'rganish;
- buyuk adib nasriy asarlarining o'ziga xos xususiyatlarini tahlil etish;
- "Holoti Sayyid Hasan Ardasher" asarida tarixiylik muammosini tadqiq qilish ;
- "Holoti Pahlavon Muhammad" asari tahlili asosida tarixiy obraz talqinini o'rganish;

² Каюмов А. Нодир саҳифалар. - Т: "Фан", 1991

³ Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. Университетлар ва педагогика институтларининг филология факультетлари учун дарслик. -Т.: "Ўқитувчи" нашриёти, 1975

⁴ Ганиева С. Навоий насри нафосати - Т., 2009

⁵ЭргашевҚ. Навоий насрий асарларида матн тузилиши. Филология масалалари журнали.Т:2011, 1-сон, 23-28 б.

- “Xamsat ul-mutahayyirin”da tarixiylik va manqabaviylik muammosini tahlilga tortish;

Alisher Navoiy nasriy asarlarida obraz va obrazlilikning aks etishiga oid kuzatishlarni umumlashtirish.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi va hajmi. Ushbu bitiruv malakaviy ishi kirish, to‘rt faslni o‘z ichiga olgan ikki asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat.

IBOB.

ALISHERNAVOIYNINGNASRIYMEROSIVAUNDATARIXIYLIKTA MOY

ILI

1.1. Alisher Navoiyning nasriy asarlari haqida ma'lumot

Alisher Navoiy ijodining salmoqli qismini uning nasriy asarlari tashkil etadi. Yana shunisi etiborni o'ziga tortadiki, ulug' adib ularni (1481-1482 yillarda yaratilgan "Vaqfiya"ni istisno qilganda) umrining so'nggi o'n yili mobaynida yaratgan. Davrning buyuk shoiri va mutaffakkiri sifatida Navoiy nasrning o'ziga xos xususiyatlarini yaxshi bilgani, uning imkoniyatlari she'riyatga nisbatan kengroq ekanligini tushunganligi uchun ma'lum ma'noda, ma'lum maqsadlar bilan nasrga murojaat qilgan. Bu maqsadlarning qanday ekanligi xar bir nasriy asarining yozilish sabablari va unda qo'yilgan masalalarning mohiyatini ochish chog'ida oydinlashadi. Bu bir tomondan. Ikkinchi tomondan, Navoiyning nasrga bundayin kech qo'l urishi o'sha davrlarda hukmron bo'lgan nazmning nasrdan ustunligi an'anasi bilan ham izohlanadi. Lekin Navoiy daho san'atkor sifatida nasrning real hayot mazmunini ancha kengroq va chuqurroq ifodalay olish imkoniyatlariga ega ekanligini tushundi va, asos e'tibori bilan, prozadan shu ma'noda foydalanadi.

Alisher Navoiy nasrining umumiy manzarasi quyidagichadir:

1. Ilmiy filologik xarakterdagi asarlar: "Muhokamat ul-lug'atayn", Mezon ul-avzon", "Majolis un-nafois" "Risolai muammo" (forscha).
2. Memuar-biografik xarakterga ega bo'lgan asarlar: "Hamsat ul-mutahhayirin", "Holoti Sayyid Xasan Ardasher". "Holoti Pahlavon Muhammad".
3. Ijtimoiy-falsafiy va didaktik xarakterdagi asarlar: "Mahbub ul-qulub".
4. Tarix, tasavvuf va din tarixiga oid asarlar: "Vaqfiya", "Tarixi muluki ajam", "Nasoyim ul-muhabbat", "Tarixi nabiyo va hukamo".
5. Insho san'ati-epistoliar proza namunasi: "Munshaot".
6. Devonlarga yozilgan "Debocha"lar,"Nazm ul-javohir" muqaddimasi va epik asarlardagi, qit'alardagi sarlavhalar.

Alisher Navoiy ana shu asarlarni yaratar ekan, o'zigacha bo'lgan sharq nasrining eng yaxshi xususiyatlarini o'zlashtirib, ularni yanada rivojlantirishga alohida ahamiyat bilan qaradi. Shuning uchun Navoiy nasriy uslubining shakllanishida Avfiy, Nizomiy Aruziy, Sa'diy va Jomiy kabi fors-tojik adabiyotidagi nasrning taniqli ijodkorlarining ma'lum ta'siri va roli bor.

O'sha davrdagi turkiy tilda badiiy adabiyotning forsiy tilidagi nisbatan sust rivoji, qadimiy o'zbek tili mavqe'ining quyi ekanligi, o'zbek tilida aruz haqida ilmiy adabiyotning yo'qligi va bular bilan bog'liq qator masalalar Navoiydek madaniyat, adabiyotning jonko'yari va homiysi uchun shunchaki masalalardan emas edi. Natijada shu bo'shliqni to'ldirish ma'nosida "Mezon ul-avzon" yaratildi, "Muhokamat ul-lug'atayn" yozildi, "Majolis un-nafois" qalamdan chiqdi, keyinchalik u yana to'ldirildi.

Bulardan birgina "Majolis un-nafois" timsolida shuni ko'ramizki, Navoiy bu asari bilan o'z salafaridan Avfiyning "Lubob ul-albob", zamondoshlaridan Davlatshohning "Tazkirat ush-shuaro" va Jomiyning "Bahoriston" (VII ravzasi)idagitazkirachilik ananalarini davom ettirdi va bu sohada katta yangilikni yuzaga keltirib, yangi tazkirachilikka asos soldi. Chunonchi, Navoiy o'z tazkirasida asosiy e'tiborni o'tmish adabiyoti va uning ijodkorlariga emas, balki o'z davri adabiy hayoti va uning ijodkorlariga qaratdi. Asarda material tanlash, ijod namunalarini keltirish va ijodkor faoliyatini baholashda Navoiy hassos shoir va ulkan adabiyotshunos davrningbuyuk gumanisti sifatida ish ko'rdi. Adabiyotni xalq xizmatiga qo'yishga intilish, uning mazmundorligi va yuksak badiiyligi va shu asosda univivojlantirish uchun kurash g'oyasi asarda bosh xat bo'lib o'tadi.

"Majolis un-nafois"da birinchi marta ijodkorlarning ma'naviy qiyofasiga, ahloqiga alohida e'tibor qilinishi, so'z san'atkorlarining ijoddan tashqari ijtimoiy-foydali mehnat bilan shug'ullanishlariga mamnuniyat bilan, turli kasb egalarining, hunar sohiblarining moddiy qiyinchilik mashaqqatini chekib ijod qiluvchilar, adabiyotga yangi kirib kelayotgan ite'dodli yoshlar haqida samimiyat va hayri hohlik bilan qarash mayllari tazkiranavislik va adabiyotshunoslikda yangi, ilg'or ananani boshlab berdi.

“Muhokamat ul-lug‘atayn” va “Mezon ul-avzon” kabi asarlarda Navoiy til va tafakkur, qadimiy o‘zbek va forsiy tillarning o‘ziga xos jihatlari, o‘zbek tilining so‘z boyligi, fonetik va stilistik xususiyatlari, o‘zbek tili va adabiyotining forsiy til, fors-tojik adabiyoti masalalarinig qiyosiy tahlili va buning sabablari, adabiy va tarixiy sharoit, aruz va o‘zbek she‘riyati, o‘zbek xalq she‘riyati va aruz vazni kabi masalalar davr uchun mustasno ahamiyatga molik nazariy va amaliy muammolar yuzasidan fikr yuritadi. Bu asarning o‘ziga xos xususiyatlari, noyob jihatlari Navoiy ijodining realistik ananalari va xalqchiligini yuzaga keltiradi.

“Muhokamat ul-lug‘atayn”ning mohiyatini tashkil qiluvchi Navoiyning bosh g‘oyaviy niyati va bu yo‘ldagi amaliy faoliyati Yevropa Renessansining tipik vakili, fransuz shoiri, tilshunosi va davlat arbobi Dyu Belleni (1522-1560) yodga soladi. Navoiyning bu asari Dyu Bellening fransuz tili adabiy normalari haqida baxs yurituvchi ana shu milliy tilda asarlar yaratishga da‘vat etuvchi “Fransuz tili himoyasi va madhi” (1549) nomli nazariy lingvistik traktati bilan hamohangdir.

Bu kabi faktlar har bir xalqning o‘ziga xos va qaytarilmas voqeasi sanalgan madaniyati tarixida, jumladan adabiyotida mavjud bo‘lgan boshqa xalqlar madaniyati va adabiyoti bilan o‘xshash bo‘lgan tipologik xususiyatlarni kuzatish imkoniyatini beradi.

Navoiy nasriy asarlaridan “Xamsat ul-mutahayyirin”, “Holoti Sayyid Hasan Ardasher” va “Holoti Pahlavon Muhammad” muallif zamonasida madaniy hayotda ulkan rol o‘ynagan mashhur fan va madaniyat arboblari – Abdurahmon Jomiy, Sayyid Hasan va Pahlavon Muhammadlarning ijodiy biografiyalarini yaratish bilan bog‘liq bo‘lib, muallif ular bilan o‘zining har sohadagi hamkorligi, muloqotlari haqida qiziqarli, hayotiy lavhalar orqali so‘z yuritadi.

Bu uchchala asar o‘zbek tilida yaratilgan yodnoma xarakteridagi nasr namunasi sifatida g‘oyat ahamiyatlidir. Ularda badiiy nasrning ilk unsurlari mavjud bo‘lib, bu hol, ayniqsa, Navoiyning portret yaratish mahoratida yorqin namoyon bo‘ladi.

Navoiyning bu asarlarini birlashtirib turadigan, ular uchun umumiy bo‘lgan muhim bir xususiyat bor. U ham bo‘lsa mazkur asarlarning sharq renessansi ruhida

yozilganidir. Zeroki ularda insonga, shaxsga hurmat va samimiyat bilan qarash, undagi go‘zal fazilat va yuksak intilishlar ardoqlanadi.

Alisher Navoiyning tarix, tasavvuf, din tarixiga oid prozaik asarlarida uning bu sohalaridagi ilmiy va falsafiy qarashlari o‘z aksini topgandir. Bu turkumdagi asarlarning har qaysisining o‘ziga xos yo‘nalishi va ahamiyati, xususiyatlaridan tashqari ularni birlashtirib turuvchi jihatlari ham mavjud. Birinchidan, bu asarlar Navoiy ijodi va faoliyati bilan bog‘liq ko‘p masalalarni to‘g‘ri tushunish, izohlash imkonini beradi. Ikkinchidan, ularda jamiyat taraqqiyoti tarixi hamda donishmand olim Navoiy bilan buyuk davlat arbobi Navoiy birgalikda fikr yuritadi. Mazkur asarlarda bu hol quyidagilar bilan izohlanadi:

“Tarixi muluki ajam” dagi tarixning ziddiyatli jihatlari va xuddi shu asardagi mamlakat iqtisodiyoti, madaniy hayotini ko‘tarishga e‘tibor bergan shohlar madhi, bosqinchilik urushi, zulm va adolatsizlikning qoralanishi;

“Tarixi anbiyo va hukamo” dagi mashhur mutafakkir va olimlarni payg‘ambar sirasida berilishi, ularni katta husn-rag‘bat bilan tilga olinishi;

“Nasoyim ul-muhabbat” dagi yirik shaxslar, tasavvuf arboblari berilgan ta‘rifu madhlar, ularning hayratomuz karomatlari tavsifi orasida goho pardalangan, goho ochiq holda bayon etilgan didaktik pandlar, o‘gitlar, oddiy kasb-hunar bilan mashg‘ullik g‘oyasini ilgari surilishi va h.k;

Jomiy avliyo sifatida nom chiqargan so‘fiy faylasuflar to‘g‘risida “Nafahot ul-uns” asarini yozgan edi. Navoiy bu kitobni turkiy tilga tarjima qildi. Ammo bu tarjima asnosida asarni ko‘pgina yangi ma‘lumotlar bilan to‘ldirib tahlil etdi. Bu to‘g‘rida Navoiyning o‘zi bunday deb yozadi: “Xotirg‘a kechmishki, agar say qilsam, bu kitobni turkiy tilga tarjima qilolg‘aymumen, ul daqiq va mushkilotdin ravshanroq alfoz va ochiqroq ado birla o‘tkarolg‘aymumen, deb mutaammil erdim va na bu hayol muddaodin o‘zimni o‘tkara olur va ne ishning azimlig‘i va dushvorlig‘i jihatidan shuru’ qila olur erdim”. Navoiyning xabar berishicha, u 901 hijriy (1495-96 melodiy) yili tarjima qilishga kirishgan. Tarjima “Nasoyim ul-muhabbat min shamoyimul futuvvat” (“Ulug‘lik xushbo‘yliklarini taratuvchi muhabbat shabadalari”)deb nomlangan. “Nasoyim ul-muhabbat” ning asosida

Jomiy asari yotgani tufayli bu kitobda bayon etilgan fikr va qarashlar har ikkala shoirga taalluqli ekanini e'tirof etish kerak.⁶

Navoiy va Jomiy o'z davrining mashhur shaxslari haqida so'z boshlar ekanlar, dastavval ularning kasb-koriga to'xtab o'tadilar. Bu odamlarning fazilatlari orqali talqin etilayotgan hol ularning o'z hunari, halol mehnati bilan tirikchilik qilishidir deyдилar.

Alisher Navoiy o'zining "Munshoat" asari bilan qadimgi o'zbek tilining insho fani-epistolyar janrdagi imkoniyatlarini namoyish qiladi.

"Mahbub ul-qulub" Navoiyning prozaik asarlari ichida alohida ajralib turuvchi eng murakkab asaridir. U Navoiy badiiy tafakkurining qaymog'i, hayotiy mushohadalarining yakuni, xulosasidir.

"Mahbub ul-qulub" da Navoiyning o'zigacha bo'lgan forsiy nasrning eng yetuk namunalari, jumladan, Sa'diyning "Guliston", Ubayd Zokoniyning "Axloq ul-ashrof", "Risolai rish" va boshqa asarlaridagi ilg'or, realistik an'analarni rivojlantirgani ham, qator-qator masalalarni yangicha talqin etishi ham, birmuncha konsepsiyalarni konkret ha qilib berishi ham, ahloqiy-etik kategoriyalar yuzasidan jiddiy baxs yuritishi ham, xalq og'zaki ijodidan unumli foydalanishi ham, nihoyat, shularni ifoda etishdagi badiiy mahorati ham eng yuksak darajada o'z tajassumini topgandir.

"Mahbub ul- qulub" dagi insonni ulug'lash, uni komil ko'rishga intilish, tasavvufiy ohanglar— asarning bosh xatini; undagi satirik portretlar, fosh qiluvchilik qudrati, rad etishlik mantiqi — isyonkorlik ruhini; ahloqiy-etik sentinsiyalar uning didaktik yo'nalishini; bayondagi aniqlik, lo'ndalik, puxtalik, uslubiy jilolar, badiiy vosita va priyomlar, hikmatli so'z, maqol, aforizm, hikoyat va she'riyat parchalarining ifoda etilishi – uning yuksak badiiyatini belgilab beradi. Asarning bu xususiyatlaridan biri ikkinchisini keltirib chiqaradi.

Navoy bu asar odamlarga, avlodlarga o'rnak bo'lishi, yaxshilikka intilishlar va yomonlikdan qochishlarida dasturulamal bo'lishi kerakligini nazarda tutgan. Binobarin, insonsevarlik va xalqparvarlik asarning bosh g'oyasini belgilaydi.

⁶- Qayumov Aziz [Matn] : Ulug' shoir hayoti va ijodi to'g'risida lavhalar. – Toshkent: Kamalak, 1991.- 176 b.

Podshoh va vazirlar, saroy amaldorlari, joylardagi mansabdorlar va qator nufuzli tabaqalar haqida o'ta tanqidiy ruhda, mudarrislar tabiblar, kotiblar, shoir va san'atkorlar kabi ijtimoiy guruhlar haqida ularning ham kamchiliklari, ham ijobiy jihatlari ko'rsatilgani holda, dehqonlar haqida esa mutlaqo ko'tarinki ijobiy ruhda yoziladi.

Navoiy fikricha, shoh odil bo'lsa mamlakat obod, xalq farovon bo'ladi. Aksincha, agar shoh zolim bo'lsa, yurt ham, raiyat ham og'ir va tahlikali ahvolda qoladi. Mansabini suiste'mol qiluvchi vazirlarni Navoiy zolimlar deb ataydi. Ular "mulkni barbod berguvchilardur va mulk ahli yig'ishtirg'onlarni yitirguvchilardur. Avlo ulkim, bular zikrida kishi xoma surmag'ay. Zahr berib bemor o'lturg'uvchi tabib, bularning holig'a mushobihdur va qarib... Bular chiyonlar, xaloyiqqa yetkurur ziyonlar".

Ijodkorlarning badiiy mahoratini tahlil qilishda adabiyot nazariyotchilari har bir asar, shu asar ijodkorining dunyoqarashi, g'oyasi, ruhiy olami, estetik ideali, uning har bir obrazi, har bir tasviriy vositasida namoyon bo'lishligini diqqat markazida tutish lozimligini qayta-qayta ta'kidlaydilar. Hech shubhasizki, bu talablar – tahlil mezonlari Navoiyning badiiy mahorati, jumladan uning nasriy asarlari badiiyatiga ham taalluqlidir. Binobarin, Navoiy nasridagi badiiyat adibning shu asarlarda ilgari surgan g'oyaviy niyati, uni talqin qilish, hal etishdagi muqarrar pozitsiyasi, o'zining ruhiy olami va dunyoqarashi bilan mutlaqo bog'liq, albatta.

Navoiyning nasriy asarlari janr xususiyatlariga ko'ra hozirgi ma'nodagi badiiy asar bo'lmasalarda, ulardagi badiiylik unsurlari shu qadar mahorat bilan sayqallanganligi, ifodalash vosita va usullarining rang-barangligi, har bir badiiy bo'yoqning quyuk va serjiloligi — hammasi birlashib, uyg'unlashib, asarning asosiy g'oyasini yorqinroq ochishga xizmat qiladi va ularning badiiy asar sifatida o'qilishini ta'min etadi.

Navoiyning qator prozaik asarlari nisbatan sodda, ravon til va uslubda yozilgan. Lekin bu adibning barcha prozasi uchun xarakterli emas. Navoiygacha turkiy tilda nasriy asarlar juda ham oz yaratilgani va forsiy nasr uslubi tobora murakkablashib, mashhur Chex sharqshunosi Yan Rinka ta'biricha, eksentrik

darajasigacha borib yetganligi Navoiy prozasi tili va uslubiga ta'sir ko'rsatmay qolmadi. Shuning uchun Navoiy prozasida murakkab iboralar, arab va fors so'zlari, mavhum obrazlar ko'plab uchraydi. Bu holni olimlarimiz Navoiy adabiy metodining shartlilik alomati, o'ziga xos xususiyatlardan biri deb sanaydilar.

Navoiy nasrining qariyb belgilovchi xususiyatlaridan biri — ularning hassos shoir qalami bilan bitilganligidir. Bu, avvalo, nasr bilan nazmning birgalikda, ham g'oyaviy, ham badiiy jihatdan uzviy aloqada ishlatilganligida ko'rinadi. Prozaik asarlar tarkibidagi nazmiy parchalar nasriy bayonda ifodalangan fikrni xulosalash, muallifning asardagi g'oyaviy niyatini yanada kuchaytirib, bo'rttirib, emotsional ta'sirchan qilib berish uchun xizmat qiladi.

Navoiy prozasining yana bir muhim xususiyati shundaki, ularni muallif obrazi birlashtirib turadi. Har bir asarda arbob Navoiy shaxsiyatining yangi bir jihati, ijodkor Navoiy dahosining yangi bir qirrasini namoyon bo'ladi.

1.2“Holoti Sayyid Hasan Ardasher” asarida tarixiylik mavzusi

Hazrat Navoiy o`zining ijodiy kamolotiga ta`sir ko`rsatgan kishilarni ehtirom va hurmat bilan asarlarida tilga olib o`tadi. Bular orasida “Sayyid Hasan Ardasher” asari alohida ajralib turadi. Bu asar (1488-1489 - yilda), ma`noqib⁷ janrida bitilgan. Manaqib favqulotda hislatli, zakiiy va valiiy kishilarning siyrati, holoti va tarjimaiy holini yorituvchi asari bo`lib, unda qahramonning xulq atvori, ishi va so`zi o`zgalarga ibrat qilib ko`rsatiladi. Sayyid Hasan—oddiy bir inson, kasbi –sipohiylik umrining oxirida esa darvesh hirqasini kiyib, xonaqohda o`tirgan kishi.

Navoiyning Sayyid Hasan hayoti haqida yozgan asarlari tadqiqotchilarimiz e`tiboridan chetda qolgan emas. Akademik V.Abdullayev, V.Zohidov, A.Hayitmetov, B.Valixo`jayev, S.G`aniyeva, N.Mallayev, Aziz Qayumov va boshqa olimlarning ishlarida bu asarlar tilga olinadi.

Alisher Navoiy uchun Sayyid Hasan — insoni komil timsoli, “Holoti Sayyid Hasan Ardasher” da u ana shundayinson siymosini yaratgan. Navoiy “Xamsa” si dostonlarida yaratilgan ijobiy-ibratli timsollar bilan Sayyid Hasan orasida o`xshashlik ko`p, agar “Xamsa” obrazlari badiiy orzu-mushohada asosida vujudga kelgan taxayyuliy-romantik tiplar bo`lsa, Sayyid Hasan muayyan tarixiy shaxs, ya`ni, ulug` shoir ideal insonning xususiyatlarini o`z zamondoshida ko`ra olgan, deyish mumkin.

Sayyid Hasan 1416-yili Hirotda tug`ilgan, otasi Ardasher Boysung`ur Mirzo davridan boshlab saroy xizmatida bo`lgan, ham shoir, ham olim, ham davlat arbobi sifatida tanilgan kishi edi. Sayyid Hasan saroyda tarbiyalandi, kichik yoshidan zehnli, bilimdon bola sifatida tanildi. Sarfu nahf, lug`at, mantiq va kalom, fiqhu hadis va tafsirni, shuningdek, she`r ilmi, muammo, tarix, nujum va musiqiy ilmlarni puxta egallab olgan bo`lsa-da, biroq g`oyat kamtarin bo`lganligidan davralarda bilimini o`zgalarga namoyish etishga intilmas, suhbatdoshlari xato qilsa ham, xijolat va ozor etmasin deb, andisha va hayo bilan yuziga solmasdi.

⁷—Komilov N. Tasavvuf I tom.- Toshkent: Movarounnahr-o`zbekiston, 2009, 260-b.

Boysung‘ur Mirzo uni o‘z o‘g‘illariga ibrat qilib ko‘rsatgan: “Na bo‘lg‘ay sening af‘ol va hisoling ham faloniyga o‘xshasa erdi”.

Alisher Navoiy Sayyid hasan Ardasher bilan birinchi marta 1456-yili, ya‘ni o‘n besh yoshligida uchrashadi va shundan keyin ular umrbod do‘st bo‘lib qoladilar. Sayyid Hasanning darveshona fe‘l-atvori, xushtab va xushsuxanligi shoirni maftun etadi: “Alar tariqu ravishi bu faqirni andoq shefta qildikim, bir kun alar mulozamatiga yetmasam erdi, sabru toqatim qolmas erdi”. Sayyid Hasan ham Navoiy huzuriga tez-tez kelib turar, ko‘rmasa, uning diydori va suhbatini qo‘msar ekan: Sayyid Hasan Navoiy orasidagi yaqinlik, insoniy mehr-oqibat shunchalik kuchli bo‘lganki, ular bir-birlarini qiyomatli ota-o‘g‘il deb hisoblaganlar. “Bu faqirga ota masobasida (martabasida) erdi”,- deyiladi “Majolis un-nafoyis” da. “Soqiynoma”da esa Sayyid Hasanning ota martabasidagi mo‘tabar kishi bo‘lish bilan birga, tariqat piri ekanini ham qayd etadi:

Yana bir budurkim, gado gar muluk

Talab yo‘lida qilgay oncha suluk,

Burun murshidi komil istay yurub,

Ani topkach o‘zin anga topshurub.

Sayyid Hasan toat-ibodatni kanda qilmagan, “mubarrak” (tabarruk) mazoratga borib, darveshlar va ahlulloh majolisiga ishtirok etib, o‘z maxlaslari (xalos bo‘lishi) uchun fotihalar tilagan:

Rindlardin bir rind aningdek yo‘q erur ogoh rind,

Shoh edi rind ahliga, balkim erdi shoh rind.

Sayyid Hasan Ardasherining qiziqishlari xiyla keng va ancha chuqurlashib, “qatlis” ufqlarga taqalgan. U faqat hayot tarzi bilan rind-darvesh bo‘lib qolmasdan, balki, mafkura, dunyoqarash, ilmiy qiziqish nuqtai nazaridan ham erkin fikrli, mustaqil odam bo‘lgan. Bularning hammasi kamsuxan, faqiru haqir ko‘rinishli Sayyid Hasanning botinan naqadar teran va ulug‘ inson bo‘lganidan guvohlik beradi. Sayyid Hasan Ardasher odob, ilm bobida mukammal bo‘lganidan, u garchi sarf, nahf, arab tili, mantiq va kalom, shariat qonunshunosligi va payg‘ambar

soʻzlarining talqini, ilmi nujum, sheʼr va musiqiy ilmini puxta egallagan boʻlsa-da, yigʻinlarda kam soʻzlar, kishilarning biror ilmiy borada ayrim nuqsonli fikrlarini eshitsu, darrov ularning yuziga solmas, unga ilzom va xijolat yetishidan andisha qilar edi. Sayyid Hasan bunday fazilatlari bilan koʻpchilik orasida yuksak hurmat va eʼtiborga sazovor, bilimdon va xushtaʼb kishi erdi.

Sayyid Hasan bir yigʻinda Navoiyning sheʼrini oʻqiy boshladi:

Ul parivashkim, boʻlubmen zoru sargardon anga,
Ishqidin olam manga hayronu, men hayron anga...

Majlis ahli kamgap kishining bu qadar sheʼrxonlikka tushib ketganini zavq va hazilomuz tabassum bilan kuzatdilar. Alisher sheʼrni bunchalik qadrlaydigan, har bir soʻzni butun nafosati bilan idrok qila biladigan zotga hayron-u lol boʻlib qoldi. Sayyid Hasan bilan Alisher dunyoqarashlari, sheʼriyatga munosabati bir-biriga hamohang kishilar boʻlib chiqdilar. Garchi ularning yoshida ancha farq boʻlsa-da, mushohadalari bir xil edi. Ikki unsdosh koʻngilning bir-biriga intilishi tabiiydir. Ularni chin doʻstlik maʼlum darajada ustoz va shogirdlik, ota va bolalik tuygʻulari chambarchas bogʻlab qoʻydi. Ular tez-tez uchrashib, suhbatlashib turadigan boʻldilar. Bu suhbatlarda sheʼr talqinlari, insonning ulugʻligi, uning tabiat yaratgan barcha mavjudotlarning eng oliy maqomi ekani, uning fazilati, shoirlar va sheʼr ahlining burchi toʻgʻrisida soʻz borar edi. Sayyid Hasan yosh Navoiyning porloq isteʼdodiga toʻla ishonch hosil qilgan edi.

—Sizning asos ishingiz nazm aytmoq, nazm taraqqiyotini yanada oliy darajaga koʻtarmoqdadir, – dedi bir kuni suhbat asnosida Sayyid Hasan. – Fazl egasining sharafi faqrdadir. Faqr va kamtarlik fazilatli inson qadrini yanada oshirgay. Faqr tariqiga dalolat va undash, nazm targʻibi Sayyid Hasanning Navoiyga uqdiradigan doimiy gaplari edi. Zotan, ezgulikning takrori yaxshilikka yoʻl boshlar. Shoir uchun esa nazmga daʼvat etuvchi, yozgan asarlarini sevib oʻquvchi va qadrllovchi kishidan azizroq zot boʻlmaydi. Shundan soʻng ular yana Lutfiy, Xoʻja Hofiz Sheroziy, Shayx Muslihiddin Saʼdiy Sheroziy, Shayx Farididdin Attor sheʼrlaridan oʻqirdilar, Shayx Aziz Nasafiy kitoblari toʻgʻrisida fikrlashadilar.

Alisher Sayyid Hasan Ardasheriga qattiq ixlos qo‘ydi, u kishi bilan har kungi suhbat yosh shoir uchun g‘oyat maroqli va zarurat bo‘lib qoldi. Sayyid Hasan uchun ham Alisher bilan muloqot xuddi shunday edi. Bir kuni xizmat tufayli ular belgilangan vaqtda uchrasholmay qoldilar. Alisher kun bo‘yi betoqat bo‘lib yurdi. Kechqurun Sayyid Hasan Ardasher kelib do‘stidan xabar topdi. Ular biror kun ko‘rishmasa hamisha shunday ko‘yga tushar edilar. Ikki ulug‘ zot o‘rtasidagi bu do‘stlik Sayyid Hasan Ardasher hayotining poyonigacha, ya‘ni o‘ttiz uch yil davom etdi.

Sayyid Hasanning fikricha, amal-mansab kishilari xuddi chog‘ir ichgan mast odamga o‘xshaydi, farq shundaki, deydi u “chog‘ir mastligi ichgan kundur, ammo joh (mansab) mastligi agar sohibjoh yillar joh ustidadurkim, mastdur”. Bu mastlik amaldor mansabdan ketgandan keyingina tarqaladi: “Ajab mayedurkim, badmastligi odamiyni yillar o‘zidin bexabar qilg‘ay”.

Sayyid Hasan umr bo‘yi shohu shahzodalar bilan aloqada bo‘ldi, saroy hashamati, javohirlarning ko‘zni qamashtiruvchi jilolarini ko‘rdi biroq shunga qaramay, u boylikka ichki bir nafrat bilan yashagan, buni payti kelganda izhor etgan ham. Masalan bir o‘tirishda birov: La‘l sang astu degi sangin sang, ammo andar miyon tafovuthost”,—hikmatini o‘zicha izohlab, tosh qozon bo‘lganda han tosh-da, qimmatda la‘lga teng kelarmidi, degan gapni aytadi. Shunda Sayyid Hasan: “Ha, tosh qozon bilan la‘l — ikkalasi ham tosh, ammo orada tafovut bor, tosh qozon odamlarga naf’ keltiradi, la‘l esa nuqul zarar”,— deya butunlay boshqa ma‘noni bayon etadi. Bu suhbat kechayotgan paytda, deb qayd etadi Navoiy, “Sulton Abu Said mirzo har kishida javohir bo‘lsa olib, bo‘lmasa tafahhusida (qo‘rqitishda) mubolag‘alar qilib, anvoiy izo va zarar etkazib erdi. Va bu baytni o‘qug‘on majlisda ham tosh qozonda osh pishur erdi”. La‘l — ofat. La‘l — dunyo, boylik ramzi. La‘l— toj bezagi, hokimiyat ramzi. Demak, shohlik, hokimiyat ham ofat, xalq boshiga kulfat keltiradigan narsa. Sayyid Hasan va Alisher Navoiy e‘tiqodi shunday. La‘l bo‘lib, shoh tojini bezagandab ko‘ra tosh qozon bo‘lib, oddiy odamlarning hojatini chiqarish afzal.

Abdurahmon Jomiy oddiy soʻfiy emas, u pir, rahnamo, odamlarni maʼrifat sari boshlash qudratiga ega, maʼrifatning chashmasidan bahramand boʻlib, shu chashma koʻzini ochganlardan. Sayyid Hasan bu darajaga koʻtarilgan emas, u oddiy darvesh. Lekin xulqu xislati, karam-saxovati bilan u ham buyuk, uning kamtarinligi, xoksorligi Jomiyga monand. Shu bois hazrat Navoiy ularni baravar ulugʻlaydi baʼzan teng qoʻyadi ham. Chunonchi, marsiya — tarkibbanda oʻqiymiz:

Bahri irfon duri— Sayyid Hasan, ulki aflok,

Etti durji aro bir koʻrmadi andoq duri pok.

Sayyid Jaʼfar Sajjodiy farqga taʼrif berib, deydi: “Mol-mulki boʻlmagan yoinki, boʻlsa ham, uning uchun boʻlmagan kishiga faqir deyiladi va faqir deb Haqqa talabgor boʻlgan oʻz murodini Haq ostonasidan izlaydigan kishiga aytiladi” (“Istilohoti urafo”, sah.316). Ammo, shunisi borki, faqru fano yoʻli —gʻoyat mushkul, azobu oʻqubatli yoʻl. Jomiy hazratlari buyuradilar:

Ganjest naqti faqr, ki onro tilismhost,

Mushkiltarin tilism tilismi vujudi most.

Sayyid Hasan Ardasher ana shu darajaga koʻtarilgan, mard inson edi. Uning dunyoni ham, toju taxt va mansabu johni ham tark etgani buning yorqin dalili.

Sayyid Hasan Ardasherdagi ruhiy-maʼnaviy muhabbat tufayli Navoiy har doim “piri irshodi” ahvolidan xabardor boʻlib turishga intiladi, sipohiylik va rindlik ham, Husayn Boyqaro saroyida maslahatchi-mustashor boʻlgan paytlarida ham, tavba-tazarru qilib, mavlono Muhammad Tabodgoniy xonaqohida chilla oʻtirgan kezlarida ham huzuriga tez-tez borib turgan, hovlisining bir burchagida u kishi uchun alohida xona qurib bergan. Sayyid Hasan istagan vaqtida bu yerga kelib, hordiq chiqargan. Navoiy Abdurahmon Jomiyga qanchalik mehribon boʻlgan, farzandday xizmatu mulozamat burchini ado etgan boʻlsa, Sayyid Hasanga ham shunday munosabatda boʻladi. Ulugʻ shoir har ikki pirining motamiga sohibazo boʻlib, butun marosimlarni bajo keltirishga boshchilik qiladi. Sayyid Hasan vafot etgan kuni Navoiy Hirotda emas edi, podsholik farmoni bilan safarga joʻnagan edi. Shoir buni falakning zulmi deb

hasrat chekadi, “men boshingda turishni, sharbatingga shirin jonimni qo‘shib, ezib bersam edi, muloyim gap qilib, ko‘nglingni olsam, goh boshingdagi yostig‘ni tuzatib, goh ayog‘ing yopsam, boshingga evrulib, farzandlik izhor aylasam” edi, deb o‘kinadi...

Sayyid Hasan Ardasher Navoiyning rozi dil aytadigan maslahatgo‘yi, eng qiyin paytlarda suyanadigan sodiq va vafodor kishisi edi. Samarqanddan yuborilgan she‘riy maktub bunga yorqin misol. Uni Navoiyning arzi holi, ko‘nglida ardoqlagan orzu- armonlari daftarining bir sahifasi, deyish mumkin. Shoir ustodiga murojaat qilib, meni faqat sen tushunasan, ahboblar holimdan ogoh emas, ular aytgan gaplarga ishonma, deb ta‘kidlaydi va Samarqandga kelishining sabablarini bayon etadi. Sabablar esa juda ko‘p.

Birinchisi — Hirotda ijod qilishga imkoniyatning yo‘qligi, so‘z qadriga yetadigan, turkiy she‘rga talabgor odamning qolmagani; Navoiy o‘z iqtidori, iste‘dodining kuchi haqida kamtarinlik qilmay, faxru g‘urur bilan yozadi:

Men ul menki, to turk bedodidur,

Bu til birla to nazm bunyodidur,

Falak ko‘rmadi men kibi nodire,

Nizomiy kibi nazm aro qodire.

Ammo moddiy tarafdin ta‘minlab, sharoit yaratib beradigan, “yoz” deb turadigan mard yo‘q, deb yozadi u.

Ikkinchi sabab — Xurosonda odamgarchilik, saxovatu muruvvatning barham topgani, uning o‘rnini nifoq, baxillik, hasad egallagani, vayrongarchilik, zulmu sitam avj olgani edi. Qaro pul uchun odam o‘ldirishni kasb qilib olgan, o‘likdan kafan tama qiladigan kishilar mamlakatda hukmron, ahli dardni tushunadigan durust odam qolmagan:

Sen erdingki, har ishda yorim eding,

Ne g‘amkim yetar g‘amg‘usorim eding.

Biroq sen ham qo‘shin bilan uzoqda, deydi Navoiy Sayyid Hasanga zorlanib, “ahli davlatdan” esa hech bir umid yo‘q.

Uchinchi sabab — irfondan bahramand bo‘lish, tariqat yo‘lini tanlash. Chunki, Navoiy e‘tiqodiga ko‘ra, inson bo‘lib yashamoqdan maqsad Ilohni va o‘z-o‘zini tanishdir. Buning esa ikkita yo‘li bor. Biri — Haqdan jazba yetib, “yaqin jomidan mast bo‘lish”, ya’ni Xudo yodida o‘zidan va o‘zligidan bexabar bo‘lib yurish, dunyoning barcha shug‘lidan yuz o‘girish, oxir-oqibatda jism – vujudan qutulib, Iloh vujudiga qo‘shilish.

Ikkinchisi — pirga qo‘l berib, uning irodasi, amri bilan “fano dashtini kezib”, riyozat oqibatida jazba topish:

Yana bir budurkim, gado gar muluk,
Talab yo‘lida qilgay oncha suluk,

Burun murshidi komil istay yurub,
Ani topkach o‘zin anga topshurub.

Birinchi yo‘lni Navoiy “majzubi solik” yo‘li deb ataydi, ya’ni avval ilohiy jazba (tortilish) yetib, keyin tariqatni qabul qilish. Ikkinchi yo‘lni u “soliki majzub” deydi, ya’ni avval tariqatni qabul qilib, tavba, vara’, sabr va hokazo maqomlarni bosib o‘tgandan keyin hol maqomiga musharraf bo‘lish.

Yigirma yetti yashar Alisher Navoiy ustozi va sirdoshi Sayyid Hasanga ko‘nglidagi niyatini bunday bayon etadi:

Chu avvalgi ish bo‘lmadi dastgir,

Ikkinchisidan xub emasdur guzir.

Ma’lum bo‘ladiki, Navoiy tasavufga, faqr ahli sulukiga yoshligidan kuchli e‘tiqod qo‘ygan, Majnunday oshig‘i sarmast bo‘lish, devona qalandarday sarsari kezishni orzu etgan. Ammo bu muyassar bo‘lmagach, munosib rahbar — piri topib, uning irshodida faqru fano ne‘matidan bahramand bo‘lishga qaror etgan. Uning niyati qat’iy, qancha umrim sarf bo‘lsa ham, bu yo‘ldan qaytmayman, deydi Navoiy:

Meniki bu savdo nazor ayladi,
Havas ilgida beqaror ayladi.

Ne imkonki topqay qaroru sukun,
Birovkim bu fikr etti oni zabun.

Urarmen qadam toki bo'lguncha gom,
Ki bo'lg'ay muyassar manga ushbu kom.

Navoiy Sayyid Hasandan ana shu niyatlarining amalga oshuviga madadkor bo'lishni iltimos qiladi, maslahat so'raydi. Albatta, bundan Navoiy Samarqandga pir izlab kelgan ekan, degan xulosa chiqarib bo'lmaydi.

Xullasi kalom, Alisher Navoiy Sayyid Hasanga Hirotdan ketish sabablarini yozgan bo'lsa ham, bu bilan ko'nglidagi orzulari Samarqandda amalga oshishiga ko'zi yetgan emas edi.

Boz ustiga, Samarqand ham Hirotda itoat etishini qayd etadi shoir. Sayyid Hasanga yuborilgan maktubda yozilgan narsalar buyuk shoir va mutafakkirning o'z oldiga qo'ygan ulkan niyatlari bayonnomasi edi. Bu niyatlar jumlasiga tasavvuf bilan astoydil shug'ullanish ham kiradi. U bu qutlug' niyatini amalga oshirdi. Hirotda qaytganidan keyin Abdurahmon Jomiyga murid tushib, tasavvuf falsafasiva tariqat asoslarini obdon o'rgandi hamda hayotida faqru fano talablariga amal qilib yashadi.

Sayyid Hasan mashhur shayx — Xoja Ahrorga e'tiqodda bo'lgan. Buning isboti shuki, Sayyid Hasan Ardasher umrining oxirgi yilida Xoja Ahrorni ziyorat qilish uchun maxsus Samarqandga safar qiladi. Umuman olganda, Sayyid Hasanning suluki va tasavvufiy e'tiqodida o'ziga xos jihatlar bor. Buni bir boshdan ko'rib chiqqan odam shuni anglaydiki, u biror-bir nazariya yoki ta'limotga ko'r-ko'rona ishonadigan, biror gapni mahkam tutib olib, o'shandan tashqariga chiqmaydigan mutaassib darveshlardan emas. Uning darveshligi — ko'ngil amri, tabiati, fe'l-atvorining taqozosi edi. Dunyo va uning boyligi, noz-ne'mati, shukuhu

shuhratiga e'tibor qilmaslik, faqr go'shasini hamma narsadan afzal bilish, faqat ma'naviy suhbatni pisand etish, she'r-u shuur, ilmu donishdan lazzatlanish Sayyid Hasanga ko'ringan xislat bo'lgan. Hatto, rindlik shug'liga giriftor bo'lgani ham Navoiyxuddi shu siyratdagi faqirlik va fanopeshalik bilan izohlaydi. Zero, rindlik ham tarkidunyochilikning bir ko'rinishi, o'zini uzlatga — Iloh panohiga otish, beparvolik va mol-u mulkka, toj-u taxtga bepisandlikning ko'rinishi edi. Ammo Sayyid Hasan nainki rindlarga bosh bo'lib, ularga otalarcha g'amxo'rlik ko'rsatgan, balki shu holda ham toat-ibodatni kanda qilmagan, “mutabarrak” (tabarruk) mazoratga borib, darveshlar va ahlulloh majolisiga yetib, o'z maxlaslari (xalos bo'lishi) uchun fotixalar tilagan:

Rindlardin bir rind aningdek yo'q erur ogoh rind,
Shoh edi rind ahliga, balkim erdi shoh rind.

Boysung'ur mirzo o'g'illari va Sulton Abu Said saroyiga yaqinlashmagan Sayyid Hasan Husayn Boyqaro taxtni olgandan keyin uning mulozamatiga keladi. Sayyid Hasanning xulqi, suhbat va zakovati sultonga yoqadi, u bu najib insonni qo'ldan chiqarmaslik rejasini tuzib, uni saroy ishlariga jalb etishni mo'ljallaydi, chuchuk so'zlar va darveshona muomala bilan Sayyid Hasanni rom etib, mansab taklif qiladi. Sayyid Hasan oxiri podsho amriga ko'nib, mustashorlik, ya'ni saroy maslahatchisi vazifasini qabul qiladi. Bu paytda, Alisher Navoiyning yozishicha, kishilar Sayyid Hasanning tadbiri, ishlaridan rozi bo'lganlar: ... “Andoq suluk voqe' bo'ldikim, podsho, shokir va soyir xaloyiq va raiyat alarning zikri xayriga zokir bo'ldilar va podsho xilvatida anisu mahram va anjumanda rafiq'u hamdam edilar” (ya'ni shunday yo'l tutdilar, podsho shukr etib, rozi bo'ldi va barcha xaloyiq va raiyat u kishining xayrli ishlarini hayotida gapirib yuradigan bo'ldilar va u kishi podshoning xilvatdagi mahrami va anjumandagi hamdamiga aylanib qoldi”). Bu hodisa yana shundan dalolat etadiki, Sulton Husayn o'zi darveshtabiat bo'lganligi uchun shunday xislatli odamlarni yaxshi ko'rgan, ular bilan nafaqat suhbat qurib, ma'naviy oziq olgan, balki davlat ishlarini shunday odamlar ixtiyoriga topshirishni ma'qul hisoblagan (Sayyid Hasan balki sultondagi ana

shu darveshona qalbni sezganligi uchun saroyiga — Boyqaro huzuriga borgan bo'lsa ajab emas). Demak, Alisher Navoiy Husayn Boyqaroni bejiz “darveshlar shohi-yu, shohlar darveshi”deb ta’riflamagan, bu xususiyat, haqiqatan ham, unda bor edi. Buni shu ham tasdiqlaydiki, Sulton Husayn Sayyid Hasanga qattiq e’tiqod qo’yib, uni bosh vazirlik vazifasiga ko’tarmoqchi, butun davlat ishlari ixtiyorini uning o’g’liga topshirmoqchi bo’ladi: “Xuroson mulkining kulliy ixtiyorin podshoh alarning soib (rostgo’y) ro’yiga va tadbiri mulkoroyiga vobasta qilgudek erdi”. Ammo yoshi oltmishdan oshgan Sayyid Hasan Ardasher Sultonning bu taklifini qat’iyan rad etadi, bugina emas, umuman saroydan ketish haqida ijozat so’raydi. “Faqri zotiy va fanoyi jibilliy”, ya’ni uning tabiatidagi azaliy faqrga moyillik, siyratu sirishtida mavjud foniylilik xislati qolib ketgan edi, deb yozadi Navoiy.

Husayn Boyqaro Sayyid Hasanga qahru itob qilib ko’radi, yalinib-yolvoradi ham, biroq darveshni hech narsa niyatidan qaytarolmas edi: u saroyni tark etib, ikki yil podsho xotiri uchun eski kasbi — sipohiylik bilan shug’ullanadi, lekin Husayn Boyqaro unga zulm qilayotganini sezib, oxiri ruxsat beradi, ular yig’lashib xayrlashadilar va Sayyid Hasan Hirotning mashxur shayxi Mavlono Muhammad Tabodgoniy huzuriga borib, uning muridlariga qo’shilgan holda butkul o’zini toat-ibodatga, tariqat sulukini ado etishga bag’ishlaydi.

Alisher Navoiy Sayyid Hasanga havasi keladi, uning saroyni tark etish to’g’risidagi qarorini qalban ma’qullaydi, ayni paytda ulug’ insonparvar shoirning bu holdan achingani, ko’ngli vayron bo’lganini ham “Holoti Sayyid Hasan Ardasher” asaridan his etish qiyin emas. Qanchadan- qancha nomunosib kishilar mansab-amal deb, martaba deb yelib, yugurgan, turli fitna-fasod, yolg’on-yashiqni ishga solib, saroyga intilgan bir paytda Sayyid Hasanga o’xshash odamlarning saroydan ketishi, amal-mansabni xush ko’rmasligi qiziq va fojiali hodisa. Holbuki, aynan shunday zakovatli, halol, nafsini o’ldirgan darvesh odamlar mamlakat va davlat ravnaqi uchun ko’proq foyda keltirar edi. Lekin, saroy — Sayyid Hasanga o’xshagan kishilar uchun begona va hatto, xatarli edi, ularning nopok niyatlari yo’lida g’ov edi. Navoiy saroy xizmatini o’z boshidan

o'tkazgani uchun ajib munosib bir tashbehni qo'llaydi: saroy xizmatida shunday ishlar voqe bo'ladiki, deb yozadi u "devosolarning tajammuli qolmas, to malakosolarga va farishta kirdorlarga ne yetkay", ya'ni saroy fitnachilariga devtabiat kishilar ham bas kelolmay, ojiz bo'ladilar, farishta xislatli odam nima qilishi mumkin axir?

Ulug' mutafakkir aytmoqchiki, inson irodasiga itoat etgan, dunyo ishi bilan shug'ullanayotgan odam Iloh irodasiga bo'ysunmagan, oxiratu oqibatni o'ylamagan odam bo'ladi. "Voy dunyo shug'lining ibtilosidin (mubtaloligidin) va yuz ming voy dunyo ahlining zulmu jafosidin, balki malolat va izosidin! Oh zamon javru bedodidin, nauzubilloh abnoyi zamon qasdu ifsodidin (fasodidin)!"

Navoiyning yuragidan otilib chiqqan bu faryod Sayyid Hasan taqdiriga va o'z taqdiriga achinish va hasrat nidosidan boshqa narsa emas. Shoir umrining oxirida g'oyat ulug' fojia — hokimiyat sofdil, nekbin, pok niyatli odanlarga tutqich bermasligi, u zo'rlik, ayyorlik, firibu nayrang makoni ekanini his etadi. Lekin bu fojialarning barini u odamlar ahloqi, nobopligiga olib borib bog'laydi. Siyosat darveshning ishi emas, darveshning vazifasi — Xudojo'ylik. Bu hikmat Sayyid Hasan misolida Navoiy ko'z oldida tasdiqlangan edi: yo shoh xizmati, yo Iloh toati (Xoliq xizmati). Ikkalasini birlashtirish mushkul.

Sayyid Hasan Ardasher "Qutbi doirai haqiqat va murshidi ahli shariat va tariqat koshifi, ulumi rabboniy Mavlono Muhammad Shamsiddin Tabodgoniy"(Navoiy) xonaqohiga kelgach, shayx suhbatida takmilga mashg'ul bo'ladi hamda ana shu pir rahbarligida bir necha marta chilla o'tirib, ruhiy-ma'naviy kamolot kasb etadi. Navoiy yozadi: "Faqr fano sulukida kulliy manzillarni qat qildirar va ulug' martabalar va biyik maqomlarga qadam qo'ydilar". Navoiy ustozining holidan xabar olish uchun xonaqohga borib turgan, bir borganimda, deb hikoya qiladi u, Sayyid Hasan "arbaa chiqarurdi", ya'ni birinchi chilla o'tirishi edi. Shayx Tabodgoniydan ahvolini so'raganimda u kishi: halaqit bermang, "bu kun bir maqomda durlarkim, soliq avvalgi arbainda ul maqomga yetsa, darde aning oldiga kelurkim, agar buko'i mufrit (Qattiq yig'i)

yuzlansa, ishining guftoriga dalolat qilur. Alarga bu hol yuzlanibdur va bag‘oyat umidvorlikdur”.

Hirotda tasavvufning turli toifadagi tariqati amal qilgan, kishilar xohlagan, ko‘ngli chopgan shayxga murid tushgan. Bunday erkin tanlash Hirot ma’naviyatining ikki buyuk peshvosi Jomiy va Navoiyda ham ko‘zga tashlanadi. Shuning uchun Alisher Navoiy Sayyid Hasanni biror-bir silsila piriga sig‘ingani uchun emas, balki, umuman, darvesh bo‘lgani, yurakdan faqru fanoga berilgani uchun hurmat qiladi Naqshbandiya sulukida chilla o‘tirishga kam e‘tibor berilgan, ularda suhbat orqali ko‘ngilni ko‘ngilga ulash, hikmatu karomat bilan ta’sir etish xush ko‘rilar edi. Sayyid Hasan esa, chilla o‘tirib, xilvatnishinlik qilgan. Yana bir diqqat qilinadigan narsa bor.

Bu — Sayyid Hasan Ardasherining qiziqqan, e‘tiqod qo‘ygan mualliflari masalasi. Navoiyning guvohlik berishicha, u tasavvuf nazariyotchilaridan Abu Homid G‘azzoliy va Aziziddin Nasafiy asarlarini ko‘p qadrlab, mutolaa etgan. Bu olimlardan G‘azzoliyning nomi bir qadar tanish, u XIII asrda yashab o‘tgan Qarshilik atoqli faylasuf edi. Uning tasavvuf nazariyasi, ayniqsa, bu ta’limotning o‘ziga xos qanoti bo‘lmish “ofoqu anfus” (kichik va katta olam) nazariyasini rivojlantirishdagi xizmati katta. Aziziddin Nasafiyning so‘fiylik tariqati va vahdati vujud, kalom va hikmatni solishtirib insho etgan “Zubdat ul-haqoyiq” (Haqiqatlar qaymog‘i), “Insoni komil”, “Kashf ul-haqoyiq” (Haqiqatlarni kashf etish), “Maqsadi aqso” (“Oxirgi maqsad”), “Bayon ut-tanzil” (Yuborilgan bayoni), “Manozil us-soirin” (Yo‘lovchilar manzili) va boshqa risolalari bizgacha yetib kelgan. Nasafiy qarashlari o‘zining xolisligi, turli ta’limotlarni betaraf turib, xolisona tahlil etishi bilan kishi diqqatini tortadi. Lekin, shunisi borki, olimning o‘z shavqi va mayli “ofoqu anfus” ta’limoti tomonida. Bu ta’limotga binoan, inson, ya’ni anfuskichik olam bo‘lib, ofoq — katta olam (makro kosmos) ning inikosidir, boshqacha aytganda, katta olamda nimaiki hodisa-harakat, siru asror, xislat-xususiyatlar mavjud bo‘lsa, u kichraytirilgan holda inson tabiati, ruhiyatida aks etadi. Shu bois inson, bir tomondan, moddiy dunyo bilan, ikkinchi tomondan, mutlaq ruh bilan zich bog‘liq va u shu ulug‘ borliqning markaziga qarab

intilaveradi, undan madad oladi, uni o‘zida topadi, tiniydi. “Ofoq va anfus” nazariyasi aslida qarmatiylar mafkurasi sifatida paydo bo‘lgan (ulug‘ tojik shoiri Nosiri Xisravshu mazxabda edi). Aziziddin Nasafiy mazkur ta’limotni tasavvuf va vahdat ul-vujud nazariyasi bilan kelishitirish, sizntezlash payida bo‘lgan.

Ko‘rinadiki, Sayyid Hasan Ardasherining qiziqishlari xiyla keng va ancha chuqurlashib, “qaltis” ufqlarga taqalgan. Demak, u faqat hayot tarzi bilan rind-darvesh bo‘lib qolmasdan, balki, mafkura, dunyoqarash, ilmiy qiziqish nuqtai nazaridan ham erkin fikrli, mustaqil odam bo‘lgan. Axir Aziziddin qarashlari rasmiy din va kalom ahligagina emas, shariatu xaqiqatni bir deb xisoblovchi so‘fiy shayxlarga ham ma’qul emas edi. Jomiyning “Nafohat ul-uns” va Navoiyning “Nasoyim ul-muhabbat” asarlarida Ibn al-Arabiy, Shahobiddin Suhravardiy, Abdulloh Ansoriy, Imom G‘azzoliy kabi ilohiyot olimlarining nomlari zikr etilgani holda, Aziziddin Nasafiyi uchratmaymiz. Bularning hammasi kamsuhan, faqiru ko‘rinishli Sayyid Hasanning botinan naqadar teran va ulug‘ inson bo‘lganidan guvohlik beradi.

So‘fiy shayxlar xoriqulodda ishlari bilan odamlarni qoyil qilish, ilohiy g‘aroyibotlarni ko‘rsatishni xush ko‘rganlar. “Nafohat ul-uns” va “Nasoyim ul-muhabbat” dabunaqa misollar ko‘p. Ammo Sayyid Hasanda bunday “g‘ayri oddiy” xislat sezilmagan. Navoiy buni qayd etmaydi. Uning eng buyuk fazilati — odamiyligi. Bardoshli, hayot-sevar kishi bo‘lishi bilan boshqalardan ajralib turgan. Hatto, yagona aziz farzandi vafot etganda ham, o‘zi yig‘lamay, boshqalrani ham motam tutishga qo‘ymay, rozi-rizolik bilan ko‘madi. Navoiy buni darveshlik talablaridan biri — Haqqa, uning taqdiriga qarshi bormaslik, taqdirga ko‘nish fazilati sifatida qayd etgan.

Alisher Navoiy Samarqanddan yozgan maktubidan boshlab, Sayyid Hasan hayotida insho etgan barcha asarlarida uning ana shu faqirligi, faqru fano kishisi ekanligini asosiy fazilat sifatida qayd etadi. Chunonchi, “Soqiynoma” da deydi:

Foniyi mutlaq, ozoda ham ul,
Garmro‘ soliki aftoda ham ul.

“Holoti Sayyid Hasan Ardasher” asari ham “Soliki foniy va gavhari koniy va orifi maoniy” degan tavsif bilan boshlanadi. “Soqiynoma” da Sayyid Hasan haqida gap ketganda yana “dayri fano”, “xarobot eli”, “foniyoona xirqa”, “tani xoknishin”, “piri turk” kabi soʻz va taʼriflarni uchratamiz. Navoiyning bu zot haqida yozgan asarlarini oʻqiganda, tasavvuf va tariqat kishisining timsoliy qiyofasi koʻz oldimizda gavdalanaveradi.

Faqr fano Sayyid Hasan siyrati va hayotini belgilovchi bosh xususiyat. “Faqr” ning maʼnosi darveshlik, yaʼni dunyodan beniyoz boʻlib, tamani uzib, Xudoga niyozmand talabgor boʻlish. Bu— tariqat yoʻliga kirgan odamning bosib oʻtadigan ruhiy-maʼnaviy maqomlaridan biri. Yaʼni: tavba, zuhd, varaʼdan keyin keladigan bosqich. Sayyid Jaʼfar Sajjodiy faqrga taʼrif berib, deydi: “Mol-mulki boʻlmagan yoinki, boʻlsa ham, uning uchun boʻlmagan kishiga faqir deyiladi va faqir deb Haqqa talabgor boʻlgan, oʻz murodini Haq ostonasidan izlaydigan kishiga aytiladi” (“Istilohoti urafo”, sah. 316). Alisher Navoiy Sayyid Hasan faqirligi, foniyligi haqida gapirganda, uning soʻfiylik darajalarini egallashi, muayyan maqomga musharraf boʻlishini bayon etmoqchi emas, Navoiy bu oʻrinda umuman darveshlik suluki, ilohiy jazbaning kuchi, ayni tasvir va taʼrif etilayotgan shaxsning xarakteri, tabiati va ahloqiy sifatlarini ajratib koʻrsatishni koʻzlagan. Shuning uchun bu yerda “faqr” va “fano” soʻzlari umuman orif odam, darveshi sodiqning xislatini belgilovchi soʻzlar sifatida qabul qilinishi kerak.

Navoiy Ilohdan jazba tekkan kishini “majzubi solik”, avvalida jazba tekkan boʻlmasa ham, lekin pirga taslim boʻlib, uning rahbarligida jazba hosil qilgan odamni “soliki majzub” deb atagan. Maʼlum boʻladiki, Sayyid Hasan Ardasher yoshligidan jazba tekkan majzubi solik ekan. Faqr gavhari uning siyratida ekan. Buni Navoiy bilar va ustozining butun foniyoona ishlarini maʼqullardi. Ammo, shunisi borki, faqr fano yoʻli — gʻoyat mushkul, azobu uqubatli yoʻl.

Ikki ulugʻ zot oʻrtasidagi bu doʻstlik Sayyid Hasan Ardasher hayotining poyonigacha, yaʼni oʻttiz uch yil davom etdi.

Shunday qilib, bu asar Navoiy nasrining juda go‘zal bir namunasi sanalib, katta samimiyat bilan yozilgan. Risola, shubhasiz, odamlarni bir-biriga oliyjanob munosabat va sof do‘stlik ruhida tarbiya qilishda ham muhimdir.

II bob. Alisher Navoiynasriyasarlaridaobrazvaobrazlilik

2.1. “Holoti Pahlavon Muhammad” asaridatarixiyobraztalqini

Alisher Navoiyning 1496-yilda yozilgan “Holoti Pahlavon Muhammad” asari memuar-biografik janrga mansub. Ushbu badiiy-tarixiy asarda nafaqat Pahlavon Muhammad hayoti va o’sha davr ijtimoiy muhiti, balki bu ulug‘ siymoning hazrat Alisher Navoiy bilan o‘zaro munosabatlari real aks ettirilgan.

Tarixiy va adabiy manbalarda xabar berilishicha, Pahlavon Muhammad o‘z davrining mashhur olimi, komil insonga xos fazilatlarni o‘zida mujassam etgan benazir siymolardan biri bo‘lgan. Alisher Navoiy bu yirik madaniyat arbobi, ilg‘or fikrli shaxs bilan qirq yil mobaynida yaqin do‘st bo‘lgan va uni o‘zining murabbiysi sanagan. Pahlavon Muhammad xalq kurash turlaridan hisoblangan “Qushtigir” – yakkama- yakk kurash bobida shuhrat qozongan. U Navoiyning zamondoshi bo‘lishi bilan birga, uning ijodiy faoliyatiga xayrixoh bo‘lgan.

Hazrat Navoiyning shaxs va ijodkor sifatidagi kamolotida Pahlavon Muhammadning tutgan o‘rni beqiyos. Professor Suyima G‘aniyeva “Holoti Pahlavon Muhammad” asariga tayanib, Pahlavon Muhammad o‘z davrining yirik qomusiy bilimga ega bo‘lgan fozillaridan bo‘lganini ta’kidlaydi¹. Jumladan, asarda yozilishicha, u astronomiya va matematika, kimyo va falsafada, adabiyotshunoslik va san’atshunoslikda, huquqshunoslik va boshqa bilimlarda nom chiqargan. Navoiy bu haqda shunday yozadi: “Chun qobiliyati baland tushgandur va muloyamati tab’i barcha funung‘a munosib va bahramandlig‘ voqi’ bo‘lgandur. Ko‘p fazoyil va kamolot ham kasb qilg‘ondurkim, zamon ahli borchada Pahlavonni musallam tutar erdilar...”⁸

Uning shu darajada yuksak bilimdonligi uchun fuzalolar, hatto shoh boshliq aksar nufuzli arboblardan va saroy ahllari ham unga yaxshi munosabatda bo‘lganlar.

¹ Qarang: Suyima G‘aniyeva. Navoiy nasri nafosati. Toshkent-2000, 101-b

⁸ Alisher Navoiy, 10 jildlik. To‘la asarlar to‘plami. 10-jild, Toshkent. 2013, 21-b

Pahlavon Muhammadning bunday nuroniy shaxs ekanligi o'sha vaqtlardagi aniq sharoitlarda g'oyat keng va katta ijtimoiy ma'no hamda ahamiyatga ega bo'lganligi o'z- o'zidan ma'lum.

Pahlavon Muhammad kishilarni yuksak axloqiy-estetik fazilatlar ruhida tarbiyalashga, xalqimizning musiqa, bastakorlik va xonandalik san'atini boyitishga katta xissa qo'shgan. Bu ulug' siymo, shuningdek, adabiyotda, so'z san'ati tarixi va ilmida ham kamolot sohibi bo'lgan nafis hissiyotli, ham olim, ham maslahatgo'y, ham yetuk ijodkorlardan biri bo'lgan. U she'riyatning juda murakkab va nozik masalalarini nazariyotchi va ijodkor sifatida atroflicha va chuqur tushungan. Shuning uchun ham unga Alisher Navoiyning mehr va rag'batini kuchli bo'lib, har doim ehtirom ko'rsatgan. "Holoti Pahlavon Muhammad" asari bu ikki mutafakkirning o'zaro hurmati nechog'liq kuchli bo'lgani isbotidir. Hazrat Alisher Navoiy bu ulug' zamondoshi haqida quyidagicha yozadi: "She'r, muammo va musiqiyki, suhbatning mujibi nishot va inbisotidir, chun Pahlavonning borchada vuqufu dahlu tasarrufi zohir, balkim ul fununda ahli fandek mohir erdi – suhbatning yuzi Pahlavong'a evrulur erdi. Takallufsiz va mubolag'alarsiz podshohdin gadog'acha va ahlullohdin yahud va tarsog'acha Pahlavonni sevmas va tilamas kishi yo'q erdi".

Asarda Pahlavon Muhammad siyratiga xos fazilatlar izchil va mufassal yoritila boradi. Hazrat Navoiy har bir tasvir, har bir fikr zamiriga teran mazmunni joylaydi. Fikrlarini chuqur mantiq asosida dalillaydi. Jumladan, muallifning yozishicha: "Pahlavonning borcha nav' ishlarining xushlig'i bayonida va har tavr siyrat va suratining dilkashlig'ining sharhida zabonavorlar tili qosir va dostongustarlar nutqi ojizdur".

Pahlavon Muhammad o'z davri adabiy hayotida katta o'rin tutgan ulkan namoyondalaridan biri bo'lgan. Hazrat Navoiy talqinicha, juda yuksak odobli va xush ta'vozeli, barchaga mehribon va g'amxo'r siymo bo'lgan. Saxiylik, odamiylik, kamtarlik, sofdillik kabi fazilatlar uni hammaning hurmatiga sazovor qilgan. Pahlavonning tantiligi, mehmonnavozligi shu darajada ediki, uning uyi kecha-kunduz odamlarga to'la, turli taomlar hamisha tayyor, sulton a'yondan

tortib, faqiru musofirlargacha undan bahramand edi. Xususan, Navoiy ham shular qatorida Pahlavonning adabiy va ma'naviy ko'magiga musharraf bo'lgan. Shu bois Hazrat Navoiy uni o'zining mehribon murabbiyi va ma'naviy ustози deb biladi.

Pahlavon Muhammad bilan Navoiy birinchi marta Abusaid Mirzo zamonida Hirotga qaytib kelganida, 1464-yilda tanishadi. Shu yilning o'zida Mashhadda xastalikka chalinganida Pahlavon Muhammad uni davolaydi. Tabiati va qarashlari o'zaro muvofiq kelgan bu ikki inson bir umrga yaqin do'st- u hammaslak bo'lib qoladilar. Navoiy bu haqda “Qirq yilg'a yaqin bu faqir bila musohibi joniy, mahrami rozi nihoniy erdi”, — deb yozadi.

Qomusiy bilimi, serqirra is'tedodi, go'zal xulqi tufayli Pahlavon Muhammad yuqori doiralarda ham hurmat qozonib, Husayn Boyqaroning nazariga tushadi. Barchaga mehribonligi, katta-yu kichikdan yordamini ayamasi, sahotpeshaligi bilan xalqning ko'nglidan joy olib, mehr-u – muhabbatiga sazovor bo'ladi.

U Qushtigir taxallusi bilan she'r yozib, xususan, muammao va ta'rix aytishda mohir bo'lgan. “Majolis-un nafois” da keltirilishicha, quyidagi baytni sulton huzurida o'qiganida, u ming oltin siylov bergan ekan:

Guftamish: “Dar olami ishq tu koram bo g'am ast ”,

Guft xandon zeri lab: “G'am nest, kori olam ast”.

(Mazmuni: Ishqing olamida ishim g'am bo'ldi, desam, u miyig'ida kulib: “Bu g'am emas, olamning ishidir”, - dedi).

Pahlavon Muhammad musiqa bilimdoni va bastakor bo'lib, u yaratgan “Chorgoh”, “Segoh”, “Panjgoh” kabi kuylar Xuroson, Samarqand va Iroqda ham mashhur bo'lgan, “Savt”, “Naqsh”, “Chorzarb”, “Qavl” yo'llarida ham kuylar yaratgan. Husayn Boyqaroga bag'ishlab bastalagan kuyiga o'zi she'r bitgan.

Navoiy Pahlavonning yaxshi qit'alari borligini ham aytadi va ulardan birining yozilish tarixini shunday bayon qiladi: Pahlavon “Sultoniy” degan ariq yoqasida bir ajoyib langar qurdirgan edi. Kunlarning birida Sulton Husayn Boyqaro ovdan qaytayotib u yerga tushadi. Pahlavon esa qo'nalg'ada yo'q edi. U bu voqeadan — ya'ni shoh kelganda o'zi bo'lmaganidan g'oyat xijolat chekib uzr

uchun bir qit'ani bitib Husayn Boyqaroga yuboradi. Unda Pahlavon — xudoning soyasi bo'lmish shoh takiyamga tushib, uning sharafini osmondan ham yuksaklikka ko'tardi. Garchi gardun o'z atlasini shohga payondozi qilgan esa ham, koshki o'zim bo'lsam edi va jonimni unga nisor qilardim, degan madhiya ma'nosida uzrhohlik bildiradi.

Pahlavon Muhammad she'r san'ati va aruzning, "qofiya" ilmining ham g'oyat bilimdoni bo'lgan.

Pahlavonning adabiy faoliyatidagi yana bir fazilatiga Navoiy tahsinlar o'qiydi. U ham bo'lsa — Pahlavonning she'riyatning ko'pgina turlari — masnaviy, qasida, g'azal va h.k.larda bitilgan asarlardan yaxshilari va ko'plarini yoddan bilishligi, joy-joyida ularni go'zal tavsif qilishligi hamda ularning g'oyamazmuniga ko'ra goh shirin va muloyim, goh jo'shqin va rangin tarzda ta'sirli qilib ta'riflashi, o'qib berishligidir.

Shunday qilib, Pahlavon o'z davri adabiy hayotida katta o'rin tutgan va shu hayotning ko'rkam vakillaridan biri bo'lgan, shu adabiyotni boyitishga muhim hissa qo'shgan shaxsdir. Navoiy Pahlavonning iste'dodi qirralari haqida ma'lumot berar ekan, uning qiroat ilmini chuqur bilishini, ayniqsa, nutq tovushlaridan to'g'ri foydalangani, Qur'onni katta san'at bilan o'qiy olganini yozadi.

Pahlavon, shuningdek, nujum fani va tib ilmidan ham puxta xabardor bo'lgan. Zamonaning mashhur tabiblari Mavlono Qutbiy, Mavlono Ulo ul-mulk va Mavlono Abdussalom kabilar tibbiyot masalalari yuzasidan Pahlavon bilan bahslar yuritishlar va uning fikr mulohazalarini inobatli sanar, Pahlavonning muolaja usullarini ta'rif qiladilar.

Pahlavon Muhammadning juda yuksak odobli va xush tavoze'li, barchaga mehribon va g'amxo'r bo'lganligini Navoiy alohida husni rag'bat va hayrat bilan qayd qiladi. Undagi sahiylik, odamxunlik, beozorlik, sofdillik kabi fazilatlar uni hammaning yuksak xurmatiga sazovor qilgan edi. Pahlavonning tantiligi, mehmonnavozligi, ulfatshunosligi shu darajada ediki, uning uyi kecha-kunduz odamlarga to'la, turli taomlar hamisha tayyor, sulton a'yondan tortib faqir musofirlargacha undan bahramand edi. Ayniqsa, u yordamlarga muhtojlarga darhol

ko‘mak qo‘lini cho‘zadigan, g‘amlilar dardini bo‘lishadigan, alamlilar diliga malham bo‘ladigan oliyjanob kishi edi. Pahlavon nihoyat darajada farosatli, shirin so‘z, iboli va hozirjavob musohib edi. O‘zining har sohadan yaxshi xabardorligi, musiqa va adabiyotning barcha sirru asrorini chuqur bilishligi hamda o‘zining bu jabhada ijodkorligi va ijrochiligi, beozor zarofatchi, beg‘araz xazl-mutoyibachi ekanligi tufayli Pahlavon har qanday suhbat va majlislarning joni va fayzi edi.

Navoiy yozadi: “Takallufsiz va mubolag‘asiz podshohdin gadog‘acha va ahlulohdin yahud va tarsog‘acha Pahlavonni sevmas va tilamas kishi yo‘q erdi”.

Bu qaydda ma‘no ko‘p. Navoiy Pahlavonning odamlar bilan munosabatiga uning qarshisida mansab va boyligi darajasi barobarligigina emas, ularning millati, diniy mazhab, va e‘tiqodlari ham farqsiz bo‘lganligini o‘qtirib o‘tadi.

Navoiy Pahlavon Muhammadning hazil-mutoyibaga moyil ta‘bi va tabiati haqida g‘oyat maroqli bir lavha keltiradi. Bu lavha Pahlavon Muhammad tabiatning eng go‘zal jihatini sharhlab berish bilan bir qatorda Navoiy dunyoqarashini, davrning kardinal falsafiy masalasiga ko‘plarning shu jumladan, mutafakkirlar va adabiyot arboblarning diqqat markazida turgan falsafiy muammoga Navoiyning munosabatini bilish hamda belgilashda ham katta ahamiyatga egadir. Bu suhbatdan kelib chiqadigan eng muhim xulosa shundan iboratki, Navoiy falsafada real hayot bilan bo‘lishni, shariyatda dunyoviylikni afzal ko‘radi va shunday xarakter hamda mazmundagi dunyoqarash va ijod tarafdori ekanligini bayon qiladi. Bu lavha shuningdek, Pahlavon Muhammadning “zehn va zakosi latofatidin va hofizasi tezligi va zarofatidin” dalolat beradiki, unga mufassalroq to‘xtash joiz ko‘rinadi.

“Majolis” da bir, “Holot” da esa ikki javob xatida bitilgan Pahlavonning Navoiyga yuborgan ruboiysi o‘rin olgan. Pahlavonning bu ruboiylari chuqur ma‘noli, yuksak nafosatli bo‘lib samimiy do‘stning xuddi shunday samimiy do‘stdan judolikdagi g‘amgin kayfiyatini bayon etadi:

Gar on ajalam zi tani noshod barad,
Hosho ki maro mehri tu az yod barad.

Xoham ki maro mehri tu az yod barad,

Boshad ki ba sui Astrobod barad.

(tarjimasi: Agarchi ajal noshod tanimdan jonni olsa ham, aslo mening yodimdan sening mehringni ola olmaydi. Istaymanki, tuproq bo‘lsamu uni shamol olib ketsa, shunday bo‘lsaki, uni Astrobod tomonga eltsa).

Yana:

Az ohui romi xud faromo‘sh makun,

Vaz sayde romi xud faromo‘sh makun.

Harchandki boshad-faromo‘shkori.

Az sari g‘ulomi xud faromo‘sh makun.

(tarjimasi: rom bo‘lgan o‘z ohuyingni unutm, yana rom bo‘lgan o‘z ovlog‘ingni unutm. Qanchalar unutuvchan bo‘lsang ham — o‘z qulingni unutm).

Asarda Navoiy yana Pahlavonning masnaviylaridan birining ham yozilish tarixini beradiki, Pahlavonning shogirdlaridan biri o‘z ustoz tarbiyati va ishonchini oqlamasdan, uni qarigan chog‘ida tashlab ketadi. Benihoya muloyim qalbli va ortiq darajada qayg‘u chekuvchi odam bo‘lgan Pahlavon bu nonko‘rlikdan juda xafa bo‘ladi va shu munosabat bilan bir masnaviy yozadi. Undan ba‘zi satrlarni keltiramiz:

Chu bar charx ravshan shavad holi man,

Ba sad diyda gir‘yad bar ahvoli man...

Hama umr tuxmi behi koshtam,

Chu vaqti baromad nabardoshtam,

Zi on talh shud zindagoniy maro

Ki piri figand az javoniy maro

Kunun man na on sheri zanjiriyam,
Badar burda ham zi g'am piriyam.

Mazmuni:

Agar ahvolim falakka ma'lum bo'lsa edi,
Yuz ko'z bilan holimg'a yig'lar edi,

Umr bo'yi yaxshilik urug'ini ekdim,
Unib chiqqanida o'ra olmadim,

Shuning uchun tirikchilik menga achchiq bo'ldi,
Keksalik meni yoshlikdan itqitib yubordi.

Men endi u zanjirband sher emasman,
G'am butunlay olib qo'ygan keksaman.

Pahlavon Muhammadning yuqorida keltirilgan ijod namunalari yuzasidan shuni aytish mumkinki, uning she'rlari chuqur ma'noli, badiiy jihatdan puxtadir. Ularda iliq yumor, samimiyat, ilg'or fikrlilik, muhitga munosabat va h.k.lar o'z aksini topgandir. Nihoyat, yana bir masala. U ham bo'lsa asarda Navoiyning Pahlavon Muhammad bilan do'stligi, ular orasidagi samimiyat asarda bosh xat bo'lib o'tganligidir. Pahlavon Muhammadni Navoiy o'zining mehribon murabbiy va ma'naviy ustoz deb biladi.

Pahlavon Muhammadga sulton Husayn Boyqaro ham katta husni rag'bat bilan qaraydi, uni juda hurmat qiladi. Shohning va Navoiyning inoyati bilan Hirot chetidagi Ne'matobod degan joyda Pahlavonga takyagoh qilib berilgan edi. Uning xizmatidayuzga yaqin qushtigir va shogirdlari, shuncha hodimlar, merganlar, chaqqon dastyorlar, o'nlan sozanda, go'yanda va xonandalar bor bo'lib, ularga yarasha jihozu asbob va boshqa kerakli narsalar ham muhayyo edi.

Pahlavon Muhammad va Alisher Navoiy uzoq yillar davomida do‘st, hamfikir, hamroz bo‘lishgan. Alisher Navoiyning o‘zi e‘tirof etgan ziddiyatlarga to‘la hayotida Pahlavonday do‘stning roli beqiyos. U chin ma‘nodagi do‘st va shoirning qalb tug‘yonlarini chuqur tushundagan maslakdosh bo‘lgan.

Ma‘lum bir shaxsning har jihatdan kamol kasb etishida zamonasining ulug‘ siymolari bilan yaqin munosabatlari beqiyos o‘rin tutishi tarixda ko‘p bor isbotlangan. Pahlavon Muhammad va Alisher Navoiy o‘rtasidagi yaqinlik buning yorqin dalilidir. Pahlavon Muhammad vafotidan keyin unga atab yozilgan “Holoti Pahlavon Muhammad” asari fikrimiz isbotidir. Navoiy mazkur asari orqali buyuk zamondoshi nomini manguga abadiylashtirdi. O‘rtalaridagi be‘qiyos do‘stlikka avlodlarga o‘rnak bo‘larli madhiya bitdi.

“Holoti Pahlavon Muhammad” asarining oxirida Navoiy Pahlavonning vafoti haqida ma‘lumot beradi. Pahlavon to‘satdan vafot etadi. Uni katta dabdaba bilan shoh va a‘yonlar, olim va shoirlar, Hirot aholisi chuqur motamda Ne‘matobodda dafn qiladilar. Shohning o‘zi katta ma‘raka o‘tkazadi. Shoirlar marsiya va tarixlar yozadilar.

Navoiy “Holoti Pahlavon Muhammad” dan keyin yozgan “Soqiynoma” sining 27 bobini Pahlavonga bag‘ishlab, uni tariqat ahlining sarvari va shohi, barcha fanlarda asrining yagonasi deb ulug‘laydi va o‘ziga yaqinligini ta‘kidlaydi:

Quvvat ahlig‘a hamovard kelib,

Lek dard ahlig‘a hamdard kelib.

Har bag‘ir yorasining malhami ul,

Qirq yilliq bu gado hamdami ul.

Xulosa qilib aytganda, “Holoti Pahlavon Muhammad” ikki buyuk siymo o‘rtasidagi do‘stona munosabatlarni o‘rganishda, hazrat Alisher Navoiy hayotining bugungi avlodlarga ibrat va namuna bo‘larli jihatlarini tadqiq qilishda alohida ahamiyatga ega.

Har bag'ir yorasining marhami ul,
Qirq yillik bu gado hamdami ul.

Maxfiy asrorda damsoz manga,
Har nihon rozda hamroz manga.

Bari hamdamlar ichida hamdardim,
Yorimu hamnafasu hamdardim —

Oni ham charxi taaddi tin,
Mendin oyirdi, qilib qasdima kin.

Hajrida sabru qarorim yo'qtur,
G'amida juz nolai zorim yo'qtur.

2.1. “Xamsat ul-mutahayyirin”damanqabaviylikvaobrazlilik

Navoiy yashab ijod etgan davrda eng shuhratli shoir va olim fors-tojik adabiyotining klassigi Jomiy edi. Mavlono Nuriddin Abdurahmon ibn Nizomiddin Ahmad 1414-1492 yillarda yashab ijod etgan fors-tojik adabiyotining yirik vakili, mutafakkir va orif, Alisher Navoiyning ustoz. Uni Navoiy mahdumi Nuran (Nurli mahdum) deb ataydi. Tarix taqozasiga ko'ra bu ikki buyuk mutafakkir bir-birlari bilan do'st, hamfikir, ustoz va shogird edilar. Jomiy va Navoiy o'rtasidagi yakdillik va do'stlik o'zbek, tojik xalqlarining birodarligi va do'stligining yorqin timsolidir. U Xurosondagi Jom viloyatining Xarjird qishlog'ida, shayxulislom Nizomiddin Ahmad oilasida tavallud topgan. Jomiyning ajdodlari arablarning Shaybon qabilasidan bo'lib, tahminan VIII asrda Xurosonga ko'chib kelishgan. Dastlabki ta'limni otasi huzurida oladi. Bolaligida Faxriddin Luristoniy, Xoja Muhammad Porso kabi yirik tasavvuf shayxlarini ziyorat qilib, qalbida ilm va irfonga nisbatan muhabbat uyg'onadi. 1425-yili Jomiyning oilasi Hirotda ko'chib keladi. Hirotdagi mashhur “Nizomiya” madrasasida Jomiy Mavlono Junaydiydan arab tili va adabiyoti, bayon, maoniy, tafsir va hadis ilmlarini, Xoja Ali Samarqandiy va Shahobiddin Muhammad Jomarjiydan hikmat, mantiq, hay'at (astronomiya), riyoziyot va boshqa fanlarni o'zlashtirdi.

Jomiy 21 yoshida nujum ilmi haqida risola yozib, Samarqandga yuboradi. Samarqandning buyuk olimi Qozizoda Rumiylar huzurida aniq fanlar bo'yicha ta'lim oladi. Jomiy hayoti davomida 7 marta safar qilgan. Movarounnahrda qilgan safarlarida Jomiy Xoja Ahror Valiy ziyoratiga kelib, uning qo'lidan tabarruk xirqa kiygan. Safarlari davomida Jomiy Samarqand, Marv, Toshkent, Andijon shaharlarida bo'lib, u yerdagi hukmdorlar va olim-u shoirlar bilan ham uchrashgan. Xoja Ahror bilan muloqotlarining samarasi ularoq, Jomiy “Tuhfat ul-ahror” masnaviysini unga bag'ishlaydi. Shuningdek, “Nafahot ul-uns” ni yozish paytida tirik bo'lgan shayxlardan faqat Xoja Ahrorning nomini avliyolar qatorida keltirib, murshidiga shu tariqa muhabbat va irodatini izhor etgan.

Alisher tug'ilgan yili Abdurahmon Jomiy 27 yoshli yigit edi. Alisher Navoiy shoir sifatida tanilganda Jomiy o'z davrining mashhur shoiri va mutafakkiri

sifatida dong taratgan mo‘ysafid edi. Navoiy Jomiyni ta’riflab juda ko‘p she’rlar bitgan. Jomiyni o‘zining eng yaqin do‘sti, ustoz, maslahatgo‘yi deb bilar edi.

“Majolis un-nafois”da Navoiy Jomiyni tasvirlab bunday deb yozadi:

“Mavlono Abdurahmon Jomiy — to jahon bo‘lg‘ay alarning yorug‘
xotiralarining natoyijjahon ahlidan kam bo‘lmasin va to mehr evrulgay alarning
ochuq ko‘ngillarining favoidi davron xaloyiqidan kam o‘lmasin...

Yo rab, bu maoni durrining ummoni,

Bu donishu fazl gavharining koni.

Kim aylading oni alam ahli joni,

Olam eliga bu jonni tut arzoni”.

Navoiy o‘zining Jomiy bilan do‘stligi va bir-biriga mehr-oqibati, mahdumi Nuranning unga nihoyatda g‘amxo‘r ekanini ta’riflab yozadi:

“Bu nav’ sohib davlati buzurgvor va bu yanglig‘ sohib kamoli nubuvvatqirdor, bu xoksori parishon ro‘zg‘orni azim iltifotlari bila sarbaland va g‘arib navozishlar bila orzumand qilib abnoyi jimsim aro sarafroz, balki jinsi bashardin mumtoz qilur erdilar”. Jomiy bilan Navoiyni do‘stlashtirgan narsa faqat ularning katta falsafiy masalalardagi hamfikrligi, jamiyat va tabiat hodisalarini bir xil talqin etishlarigina emas, balki ularning tabiati, kishilarga munosabatlari, dunyoqarashlari, xullas, insoniy sifatleri ham deyarli bir xil bo‘lganida edi.

Bir kuni Navoiyning qo‘liga Xo‘ja Abdullo Ansoriyning “Ilohiynoma” kitobi tushdi. Uni kotib Shayx Abdullo olib kelgan edi. Bu odam yaxshigina kotib ekanidan tashqari, kitob savdosi bilan ham shug‘ullanar edi. Yana u kishi o‘zi ham Abdullo Ansoriyning avlodidan ekan. Navoiy xushxat qilib ko‘chirilgan, chiroyli muqovadagi bu kitobni diqqat bilan ko‘zdan kechirdi. Asar ikki katta bo‘limdan iborat edi. Navoiy uning biror varag‘ini o‘qib chiqmoqchi bo‘lib sekin mutolaa qila boshladi. Asarning tili shu qadar latif va ravon, badiati shunday jozibali edi-ki, kitobxon undan o‘zini uzib olishi qiyin. Navoiy asar latofatiga berilib ketdi. U boshqa ishlarini tashlab, tinimsiz shu asarning mutolaasiga kirishdi va bir o‘tirganda har ikki juzvni tamomlagandan so‘nggina o‘rnidan turdi. Do‘stlari bilan

suhbat asnosida shu holni u aytib berganida, hozir bo'lganlar hayratda qolishdi. Bunday katta asarni bir martada boshidan oxirigacha o'qib chiqish ancha ish, dedilar ular.

Ertasi kuni ertalab Jomiy Navoiyning uyiga keldi. O'sha kitobni ko'rib Jomiy uni qo'liga olib ochdi va diqqat bilan qarab chiqdi. Tunov kuni suhbatda hozir bo'lgan odamlar hayrat yuzasidan u kungi gapni Jomiyga aytib berdilar. Ulug' shoirning sersoqol va nuroniy yuzida tabassum paydo bo'ldi. U mayin jilmayish bilan dedi:

— Ajab amri ittifoqiy bizning va sizning oraliqda voq'i bo'lg'on
ermish:ikki

yo uch kun burunroq Mavlono Shayx Abdullo ushbu risolani bizning qoshimizga keltirib erdi, biz dog'i avvaldin bunyod qilduk, oxirig'a degincha hech yerda turmoq bo'lmay tugandi. Ertasi shayx Abdullo kelib kitobning yo o'zini, yoki pulini olmoqchi bo'ldi. Navoiyning yaqinlaridan biri unga Navoiyning bu kitobni bir o'ltirishda to'xtatmay boshidan oxirigacha o'qib chiqqanini aytib berdi. Shayx Abdullo hayron bo'ldi va dedi:

— Hazrati Mahdumiy (Jomiy) xizmatlariga ham eltub erdim, alarg'a ham ushbu hol voq'i bo'ldi.

Bir kuni Jomiy bilan Navoiy uzoq suhbatlashishdi. So'z kitob va uning ahamiyati to'g'risida ketdi. Davrlar, insonlar o'tib ketadi: shaharlar buziladi, qal'alalar xarobaga aylanadi, ekinzorlar va bog'lar o'rnini sahro va cho'llar egallashi mumkin. Ammo so'z yashaydi, kitoblar avloddan-avlodga avaylab o'tkaziladi, ularda bitilgan olijanob fikrlar, tashviq etlgan yuksak intilishlar hamisha insonlar qalbidan joy oladi, shuning uchun har avlod vva xalq qo'lyozmalarni avaylab asraydi, ulardan nusxa ko'chiradi, o'z tiliga tarjima qiladi, undagi so'z va fikrlarni bolalarga uqdiradi. Xullas odam bolasi barhayot ekan, kitob yashaydi, kishilarga yashash ilmidan murabbiy bo'lib qoladi. Yana har bir ma'rifatli insonning eng aziz do'sti, hamdami kitobdir.

Navoiy keksa ustoz va do'stini shodumon etish niyatida uning devonini chiroyli qilib ko'chirtirishga ahd qildi. Ertasiga hattot Abdusamadga odam

yubordi. Abdusamad tezda yetib keldi. U Hirotning eng mashhur va atoqli xushnavislaridan biri edi.

—Mavlono Jomiy hazratlarining devonlaridan bir nusxa ko‘chirgaysiz, — dedi Navoiy. — Faqat g‘oyat diqqat va e‘tibor ila bu ishni amalga oshirmoq darkor.

Abdusamad g‘oyat ehtirom va ta‘voze bilan bu taklifni qabul qildi.

— Mundoq ulug‘ vazifaga musharraf qilganliklari uchun behad minnatdordurmen, — dedi u quvonib. — Amringiz ko‘ngiladagidek ado etilg‘ay.

U shoshilib kitobni ko‘chirishga kirishdi. Chuni uning qo‘lida yana bir zarur buyurtma ham bor edi. Agar har ikkalasini tezroq bitirsa, qancha haq olishini darhol hisoblab ko‘rdi. Jomiy devonini tezroq ko‘chirish kerak. Chunki Navoiyning bu ishga qanchalik sahovat bilan haq to‘lashini kotib yaxshi bilardi. Oradan ikki-uch hafta o‘tdi. Abdusamad belgilangan fursatdan oldin devonni ko‘chirib olib keldi. Navoiyning buyrug‘iga ko‘ra unga yaxshi haq to‘landi, qo‘lyozmani Navoiyning kutubxonachisi qabul qilib oldi va ertasi kuni uni Jomiy huzuriga eltdi. Jomiy minnatdor bo‘lib, kitobni bir-ikki kun qoldirishni so‘radi. Oradan bir qancha muddat o‘tdi. Navoiy Jomiyning huzuriga keldi. Xontaxta ustida o‘sha qo‘lyozma ochiq turar edi. Jomiy qo‘lyozmani parishonlik bilan varaqlab turib dedi:

“Bu kitobni g‘arib nav’ bitibdur, anga o‘xsharkim, zoyi’ bo‘lg‘ay shoshib turgan. Biror misra yo‘qki, g‘alatsiz bitilgan bo‘lsa, ba‘zi yerlarida takror yozilgan baytlar bor, ba‘zi o‘rinlarida esa kerakli baytlar tushib qolgan. O‘zi ko‘p xushxat kotib ekan. Ammo ehtiyoj yuzasidan shoshib ishlaydi, shekilli. Agar shundy ish tutadigan bo‘lsa, u bechoraning holi xarob bo‘lur. Navoiy xijolatda qoldi. Ular uzoq suhbatlashib bu to‘g‘rida fikr almashdilar. Oxiri Navoiy dedi:

— Agar siz o‘z muborak qo‘lingiz bilan o‘sha nuqsonlarni tuzatib chiqsangiz, bu kitob nusxasi tabarruk bo‘lib qolur va har qo‘l urgan joyingiz bu kitobga zebu ziynat bo‘lur.

Jomiy bu maslahatga rozi bo‘ldi. Xatolar ko‘pligidan ko‘p tuzatish bo‘ldi. Bu ish intihosiga yetgach, Jomiy ana shu voqeani tasvirlovchi bir qit‘a yozib devonga tirkadi.

Hirotning ko'p shoirlari Jomiy va Navoiy atrofida uyushgan edilar. Ularning shoirlik iqtidori turlicha bo'lib ba'zilar yuksak iste'dod bilan she'r aytar, ba'zilar o'z holiga yarasha go'zal bitar, ammo barchalari ham Jomiy va Navoiyning iltifoti va suhbatidan hamisha bahramand bo'lar edilar. Zotan she'r yozish qobiliyatigagina emas, balki she'rni tinglash va anglash qobiliyatiga ega bo'lgan kishilar ham shoirlar uchun bo'ladilar. Agar bu toifa kishilar bo'lmaganda shoirlar kim uchun yozar edilar? Kim ularning jon haroratining taftida toblangan misralarning qadriga yetar, kim ularning bebaho lazzatidan kayf qilar edi? Shoir uchun har bir ta'bi nazmi bor odam, har bir she'r qadriga yetuvchi zarshunos inson uchun ozuq, suv, havo qancha zarur bo'lsa shuncha zarurdir.

Jomiy 1472-1473-yillarda haj ziyoratiga boradi. Safar davomida Jomiy qaysi mamlakatda bo'lmasin, zamon hukmdorlari va ilmu adab ahli unga alohida izzat-ikrom ko'rsatib, suhbatidan bahramand bo'lganlar. Misrda fotimiylar bilan bo'lgan ilmiy munozarada g'olib chiqib, ahli sunnat va jamoat aqidalarini qattiq himoya qilgan. Oqquyunlilar podshohi Uzun Hasan Jomiyning Tabrizda qolib, ijod bilan mashg'ul bo'lishini taklif qiladi, ammo Jomiy Hirotda qari onasi borligini aytib, vataniga qaytib keladi va umrining oxirigacha shu shaharda yashab, barakali ijod qiladi. 1492-yil 8 noyabrda Jomiy vafot etadi. Navoiy ta'ziya sohibi sifatida uning dafn marosimiga bosh-qosh bo'lib, bir yil aza tutadi. Ustozi qabri ustida muhtasham maqbara qurgan Navoiy Jomiyning yil oshi marakasida katta bir marsiya yozib, Husayn Voiz Koshifiyga o'qitadi. Keyinroq ustoz xotirasiga bag'ishlab, "Xamsat ul-mutahayyirin" asarini yozadi.

Navoiy Jomiy vafotidan chuqur qayg'uga tushadi. U bu haqda yozadi: "Panjshanba kuni xotirim alarning za'fidin bag'oyat mutaraddid erdi, jum'a kechasi bu taraddudda uyqum kelmas erdi. Yarim kecha iztirob yuzidan o'tlanib, alar xizmatig'a iyodatg'a bordim. Ba'zi azizlar va as'hob alarning boshlarida jam' erdilar, goh behol, goh o'z hollarida erdilar. Faqir gustoxliq yuzidan xotir itmiynoni uchun hollarin so'rdum, iltifot qildilar... Tong otkuncha bir holda erdilar, chun tong namozidin xaloyiq forig' bo'ldilar, alarning holi o'zgacharak bo'ldi...

Mavlono Ziyovuddin Yusufkim, alarning arjumand farzandlaridurlar, ayog‘lari sori ko‘zlarig‘a o‘tru o‘lturub erdi, alar qachon ko‘z ochsalar anga iltifot yuzidin boqadurlar erdi. Bu faqir gustohliq qilib iltimos qildimkim, maxtumzoda o‘trudin qo‘shtilar. Andin so‘ngra alar naqishbandiya xojalari tariqi bila xafiyzikipig‘a mashg‘ul bo‘lub, o‘z tavajjuhlarig‘a ishzig‘ol ko‘rguzdilar, to jum‘a soloti chiqti, Xoja Hofiz G‘iyosiddin Muhammad Dehdor kelib, alarning boshida Qur‘onxatmig‘a mashg‘ul bo‘ldi, to ulzamonkim, hanuzel namozdin forig‘ bo‘lmaydur erdilarkim, alar kasrat anjumanidin ko‘z yumub, vahdat xilvatxonasig‘a nuzul qildilar. Alarning mutahhar ruhi chun malail-a‘log‘a azimat qildi va azhobining hayoti qushi hamul toyiri qudsiydin irashti, fazai akbar malai a‘log‘a yetishti, chun ul pok muhib o‘zin pok mahbub visolig‘a soldi — olam jonsiz badandek xoli qoldi.

Ko‘kka motamzodalar navhasi gar yovushti,
Meni motamzadag‘a lek qatig‘ ish tushti”.

Alisher Navoiy sohibi azo sifatida dafn marosimi va ma‘rakalarga bosh-qosh bo‘ladi, motam tutadi va do‘sti vafotiga yil to‘lganda katta yig‘in o‘tkazadi. 1494 yilda esa Jomiy xotirasiga bag‘ishlab maxsus asar yozadi va uni “Hamsat ul-mutahhayirin” deb ataydi.

“Hamsat u-mutahhayirin” muqaddima, uch maqolat va hotimadan iboratdir. Asar muqaddimasida Navoiy Jomiyning nasabi, tug‘ilishi, tarbiyalanishi, tahsil olishi, shoir va olim bo‘lib yetilishi haqida ma‘lumotlar beradi.

Ikkinchi maqolada Navoiy bilan Jomiy oralarida “o‘tgan ittifoqiy umur va g‘arobatliq so‘zlar” haqida maroqli hikoyalar keltiriladi. Bu bob tarkibidagi 13 lavhada Jomiy xarakterini, uning tabiatini ochib beruvchi turli voqealar va shu voqealar munosabati-la Navoiy bildirgan mulohaza va maslahatlari hamda uning yumorga moyilligini ko‘rsatuvchi go‘zal naqlar va turli adabiy mavzularda o‘tkazilgan suhbatlar beriladi. Navoiyning o‘zi ta‘kidlaganidek, mana shu maqolatdan Jomiyning unga bo‘lgan alohida “xususiyat va iltifotlari ma‘lum” bo‘ladi.

Uchinchi maqolatda Navoiy va Jomiy oralaridagi turli davrlarda bitilgan maktublar keltiriladi. Bu maktublarning mundarijasi ikki bir-biriga g'oyat suyanib qolgan, mehribon do'stlarning sog'inch maktublari, badiiy ijod yuzasidan yozishmalar va ijtimoy-siyosiy voqealar bilan bog'liq xatlardan iborat. Binobarin, ularda ikki do'stning mushtoqlik kayfiyatlari, ularning ma'naviy olamlaridagi umumiy jihatlar, badiiyat sohasidagi, nafosatni ilg'ashdagi mushtarak nuqtalar namoyon bo'ladi. Navoiy bu maqolatda ham 13 ta kichik boblar ochib, yozishmalarning tarixi va ulardagi mavzularni yoritib beradi. Chunonchi:

Kunlarning birida Jomiy huzurida Amir Xusrav Dehlaviyning mashhur "Daryoyi abror" nomli qasidasi borasida so'z ketganda Navoiy uni g'oyat maqtaydi, qasida haqida Husrav Dehlaviyning o'z so'zlarini keltiradi: "Agar aflok havodisi va ro'zg'or navoibidin mening borcha nazmim zamona sahifasidin mahv bo'lsa va bu qasidam qolsa menga basdur nechunkim, har kishi ani o'qusa bilurkim, nazm mulkida mening tasarruf va iqtidorim ne martabada erkandur".

Jomiy to majlis tarqalguncha sokit o'tiraveradi. O'sha kunlarda Navoiy Marvga jo'nashi kerak bo'lib qoladi. U do'sti Jomiy bilan xayrlashgani va fotihasini olgani uning huzuriga boradi. Jomiy oq yo'l fotihasini berar ekan, qo'ynidan bir qog'oz chiqarib Navoiyga uzatadi. Navoiy faqat yo'ldagina u qog'ozni ochib o'qishga imkoniyat topadi, qarasa, "Daryoyi abror" javobida yozilgan "Lujjat ul-asror" deb nomlangan qasida ekan. Uni ot ustida xushhollik bilan o'qib ketar ekan. Navoiy hayoliga "Tuhfat ul-afkor" qasidasining birinchi bayti-matlai keladi. Shoir uni darhol qog'ozga tushirib, Jomiyga bir bek orqali jo'natadi va undan qasidani tugatishga loyiq yoki loyiq emasligi xususida fikr so'raydi. Jomiydan "albatta tugatsun" mazmunida maqtovlar to'la javoblar keladi. Navoiy to Marvga yetgunga qadar qasidani tugatadi va uni Jomiyga baxshiyda qiladi. Bu voqea 880 yil, rajab oyi (ya'ni 1475/76 yil oktyabrida) yuz bergan edi.

Bir kuni Navoiy Marvda ekanida Iroqdan taniqli san'atkor Ustod Hasan Noyi degan sozandaning vafoti xabari yetib keladi, Navoiy Jaloliddin Rumiyning "Masnaviyni ma'naviy" sidan mashxur

Bishnav az pay chun hikoyat mekunad,

Az judoiho shikoyat mekunad

(ya'ni, naydan eshitgil, qanday hikoyat qilmoqda; u judoliklardan shikoyat qilmoqda) baytini tazmin qilib, quyidagi she'rini yuboradi:

Sharxi shohi ustodon Hasan,

“Bishnav az nay chun hikoyat mekunad”,

Band-bandi u judo gashta zi ham,

“Az judoiho shikoyat mekunad”.

(ya'ni, Ustodlar shohi Hasandan judolik shohini qanday hikoya qilinishini naydan eshitgil. Uning band-bandi uzilib judoliklardan shikoyat qilmoqda). Bunga javoban Jomiy mazkur baytni tazmin qilib, maktubda bir ruboiy jo'natadi:

Shud nai xoma dilamro tarjumon,

“Bishnav az nay chun hikoyat mekunad”.

Bo zaboni tezu chashmi ashkrez,

“Az judoiho shikoyat mekunad”.

(ya'ni, qalamning payi dilimning tarjimoni bo'ldi, qanday hikoya qilishini paydan eshitgil. O'tkir til va yosh to'quvchi ko'z bilan judoliklardan shikoyat qilmoqda). Maktubda yana shunday so'zlar bitilgan edi: “Firoq kunlari cho'zilishining hikoyati va mushtoqlik tunlari uzayishining shikoyati shunday kunki, uni og'zi basta siyohdon va tili keskin qalam yordamida bu nomada bayon qilish mushkul va bu sahifaga sig'dirish mahol. Noiloj shu yerda to'xtatib iltijo qilinadikim: (She'rning tarjimasini:)

Ag'yorlar tashvishi bo'lmagan soatda,

Do'st bor qutlug'majlisda,

Zo'r ta'zim bilan yer o'pib,

Duogo'ylarning (ya'ni, Jomiyning — S.G'.) darin hurmatini yetkazgil.

Bitmas davlat va tunganmas saodat (senga) yor bo'lsin!

Mana shunday maktublarda agar Navoiy Jomiyga qarata “Iltifot yuzasidin yuborgan maktublari yetishti. Ummon dengizi kabi tab’lari daryosidin olingan gavharlari boshimiz uza tojga tikildi, ko’z va ko’ngil uyi ular bilan ziyo topti”, deb farah-la shukronalar aytsa, Jomiy Navoiyga “Ma’nilarga to’la sharofatli so’zlar, nozik nuqtalar bilan bezatilgan go’zal iboralar menga bahra va shodlik baxsh etdi. (She’rni tarjimada beramiz):

“Agar sening lutfing tikanzorlarda yetishsa,
Tikanzorlar bahoristonga aylanadi” —

deya g’urur bilan minnatdorchilik izhor qiladiki, natijada biz ham bu ikki ulug’ siymoning bir-birlariga bo’lgan muhabbat, hurmat va meribonliklaridan hayajonlanib, ta’sirlanib ibrat sabog’ini olamiz.

Jomiy va Navoiyning ijoddagi hamkorliklari va bu sharaflari hamda mas’uliyatli faoliyatdagi ularning yaqinliklari “Hamsat ul-mutahhayirin”ning uchinchi maqolatida o’z aksini topgandir. Bu bob avvalida Navoiy Jomiyning 38 nomdagi asarlari ro’yxatini beradi. Ularning aksariyatini ro’yobga chiqishi Navoiy tashabbusi bilan aytib o’tadi. Shundan so’ng, Navoiy o’zi hamda ijodi namunalari haqida Jomiy qaysi asarlarida nimalar deganini va o’zining ham asarlarida qayd qilgan do’sti madhidagi fikrlarini keltiradi. Bu maqolatdan yana shu narsa oydin bo’ladiki, Navoiy Jomiyga o’zining lirik she’rlaridan devonlar tartib etib, ularga maxsus nomlar berishni taklif etadi. Bu gap bo’lib o’tkandan ikki kun keyinroq Jomiy Navoiy maslahati yuzasidan ishga kirishib ketganini ko’rsatuvchi devonlar uchun tuzilgan fexrastni beradi.

Jomiy o’z kulliyotining muqaddimasida bu haqda alohida to’xtalib ham o’tadi. Navoiyning “Hazoyin ul-maoniy” nomi ostida jam’langan to’rt devonining tartib qilinishi Jomiy taklifi bilan amalga oshiriladiki, bu hol ijodiy hamkorlik tajassumidir. Asarning bu bobida, shuningdek, bir-biriga ham ustozlik ham shogirdlik birinchi o’tagan Jomiy va Navoiyning bir-birlari asarlariga qilgan tatabbu’lari, bog’lagan musaddaslari haqida ham qimmatli ma’lumotlar bor.

Hotimada esa Jomiyning xususan qaysi asarlaridan bahramand bo’lgani va uning rahbarligi ostida boshqa mashhur kitoblarni mutolaa qilgani

to'g'risida so'z yuritadi va do'stining ba'zi favqultabiiy xususiyatlarini ko'rsatuvchi manzillarni hamda unga aloqador bo'lgan qiziq tasodiflarni hikoya qiladi.

“Hamsat ul-mutahhayirin” oxirida Jomiyning xastaligi vafoti va dafn etilishi tafsilaotlari beriladi. So'ngra Jomiy vafotiga yil to'lganda notiqlik san'atining yirik namoyondasi, marhumning ham, muallifning ham yaqin suhbatdoshlaridan bo'lgan Mavlono Husayn Voiz Koshifiy xaloyiqqa o'qib eshittirgan marsiya va ta'rix keltiriladi. Har biri 10 baytdan iborat 7 band (140 misra') li bu marsiyada Navoiy buyuk inson, fan olamining yagonasi, she'riyatning mohir ijodkori bo'lmish samimiy do'stini yo'qotganidan alamli nolalar qoladi. O'zining yolg'izlikda chekkan, chidab bo'lmaslik darajasidagi yurak qayg'ularini, dil dardlarini g'oyat ta'sirli qilib bayon etdi. Marsiya o'z muallifining o'sha kezlardagi chuqur ruhiy kechinmalrini ochib beradi.

Sadriddin Ayniy bu marsiya haqida shunday yozgan edi: “Alisherning Jomiy vafotiga yozgan tarkibbandi marsiya adabiyotining eng jon o'rtovchi namunasidir... Bu tarkibbandda Jomiyning butun ilmiy va adabiy qudrati mujassamlagan”.

Hulosa qilib aytganda, “Hamsat ul-mutahhayirin”da keltirilgan ko'plab misollar, lavhalar Navoiy davrining birmuncha tomonlarini ochib beradi, xalq va mamlakat hayotining murakkab jihatlarini, ilmiy va badiiy ijodga aloqador masalalarni ham yoritib beradi. Shular bilan bir qatorda bu asar Navoiy bilan Jomiy do'stligining juda chuqur va har taraflama ekanligini va bu do'stlik haqiqiy gumanistlik asoslarga tayanganligini g'oyat yorqin aks ettiradi.

“Hamsat ul-mutahhayirin” Navoiyning Jomiyga, ular orasidagi hamjihatlikka, do'stlikka qo'yilgan mangu obidadirki, bu o'z navbatida uzoq moziylarda bir jon ham bir tan bo'lib yashagan, ijod qilgan, birgalikda pant'u namo topgan o'zbek va tojik xalqlari qadimiy do'stligining ham yorqin va go'zal ifodasi, ibratli va xavasnok namunasidir.

Alisher Navoiy asarlarini ko‘chirgan hattotlar
“Xamsat ul-mutahayyirin”

/r	Xattot nomi	Ko‘chirish davri va hududi	Saqlanish o‘rni	Invertar raqami	Xat turi	Qo‘shimcha ma’lumot
	Ollohquli ibn Mullo Dargohquli	1216/1801-02y Buxoro	Toshkent, ToshDShI ShQM, 1-fond	3902/5-7	Nastaliq	—
	Abdurrahim ibn Muhammad Fozil Koshg‘ariy	1240-1245/1824-1830 y Koshg‘ar	Toshkent, ToshDShI ShQM,3 – fond	316	—	O‘lchovi 300x440 mm, Tarkibiga N.ning 18 ta asari kirgan
	Xojaniyoz ibn Mullo Muhammad Mo‘minqulixoja	1246-47/1830-32y	Toshkent, ToshDShI ShQM,3 – fond	2589	—	—
	Muhammad Tohir ibn Mullo Tangriberdi	1258/1842-43y	Toshkent, ToshDShI ShQM,1 – fond	1852/5	—	—
	Muhammad Yunusxoja ibn	1291-	Istanb	41		

	Mullo Bobojon xoja Shahrisabziy	1295/1874- 1879	ul, IUK.	49	—	—
	Sulaymonqu l Suyarqul o'g'li Rojiy	1329/19 11-12y	Qo'qo n adabiyot muzeyi	22 0	—	—
	Nosirjonhoji Xo'qandiy	1338/19 19-20 y. Qo'qon	Toshk ent, ToshDShI ShQM,1-f	69 3	—	—

“Holoti Sayyid Hasan Ardasher”

/r	Xattot nomi	Ko'chir ilish davri va hududi	Saqlan ish o'rnini	In vertar raqami	X at turi	Qo'sh im- cha ma'lu mot
	Shermuham mad Munis	1213/17 98-99y Xiva	Toshk ent, ToshDShI ShQM, 3- fond	2	—	—
	Avazberdi ibn Tilov Muhammad Beshariqiy	1240/18 24-25 y. Qo'qon	Ros FASHQI	E 1	—	—
	Muhammad Yunusxoja ibn Mullo Bobojon	1291- 1295/	Istanb ul,	41 49	—	—

	xoja Shahrizabziy	1874- 1879 y	IUK			
	Ibodulla Odilov	1360/19 41y	Toshkent, ToshDShI ShQM,1 – fond	57 33	—	—

“Holoti Pahlavon Muhammad”

/r	Xattot nomi	Ko‘chir ilish davri va hududi	Saqlan ish o‘rni	In vertar raqami	X at turi	Qo‘sh im- cha ma’lu mot
	Avazberdi ibn Tilov Muhammad Beshariqiy	1240/18 24-25y Qo‘qon	Ros FASHQI	E 1	—	—
	Muhammad Beshariqiy	1240/18 24-25 y. Qo‘qon	Ros FASHQI	E 1	—	—
	Muhammad Yunusxoja ibn Mullo Bobojon xoja Shahrizabziy	1291- 1295/ 1874- 1879 y	Istanb ul, IUK	41 49	—	—

	Ibodulla Odilov (1872-1944)	1360/19 41y	Toshkent, ToshDShI ShQM,1 – fond	57 33	—	—
--	-----------------------------------	----------------	---	----------	---	---

Xulosa

Alisher Navoiy jahon adabiyotida o‘zining lirik, epik va ilmiy-nasriy asarlari bilan shuhrat topgan san’atkordir. So‘z san’atining eng yuksak namunalari sifatida baholangan Navoiy asarlari u yashagan davr, ijtimoiy-siyosiy hayot, adabiy muhit va albatta, zamondoshlari haqidagi muayyan ma’lumotlarga ham boy. Har bir adabiy tur yoki janrlar imkoniyatidan o‘rinli foydalangan shoir lirik asarlarida zamondoshlari haqidagi fikr-o‘ylarini obrazli, ramziy-majoziy timsol va vositalar orqali ifodalagan. Epik asarlarda – dostonlarining kirish boblari yohud xotimada zamondoshlari — hukmdor Husayn Boyqaro, shahzodalar – Badiuzzamon mirzo, Shoh g‘arib mirzo, Sulton Uvays Bahodir hamda salafлари shular jumlasidan, Abdurahmon Jomiy madhini keltirib, mubolag‘adan foydalansa-da, ular haqidagi faktik materiallarga ham tayanadi. Ayniqsa, Jomiyga bag‘ishlangan madhlarini alohida e’tirof etish mumkin, zero shoir o‘z maslakdoshini ko‘larga ko‘tarib vasf etsa-da, hayot haqiqatidan uzoqlashmaydi. Jomiyning asarlari, ba’zi o‘rinlarda ularning yaratilishi bilan bog‘liq ma’lumotlarni beradi. Ushbu madhlarni o‘rganib, Jomiy haqida ma’lumotlar olish, u zot siyosini ko‘z o‘ngimizga keltirishimiz mumkin.

Navoiyning zamon ahli, o'tmishda yashab o'tgan mashhur kishilar xususidagi fikr-mulohazalari ko'proq ilmiy-nasriy asarlaridan o'rin olgan. Uning asarlarida ta'rif-tavsif etilgan tarixiy shaxslarning har birini aniqlash, biografiyasini tiklash mushkul ish. Faqatgina "nasoyim ul-muhabbat" va "Majolis un-nafois" tazkiralarda mingdan ortiq tarixiy shaxslar haqida muxtasar bo'lsa-da, ma'lumot berilgan. Shu bilan birga Navoiy o'z hayotida, tarbiyasida, ijod yo'lida, kamolotga erishishida muhim o'rin tutgan zotlar haqida maxsus asarlar bitgan. Jumladan, adibning "Xamsat ul-mutahayyirin", "Holoti Sayyid Hasan Ardasher", "Holoti Pahlavon Muhammad" asarlari shoir taqdirida muhim o'rin tutgan uch inson — Abdurahmon Jomiy, Sayyid Hasan Ardasher hamda Pahlavon Muhammad haqida ancha batafsil ma'lumot beradi. Bunday do'stlardan yana biri Husayn Boyqaroni esa Navoiy har bir asarida tilga oladi.

Bu siymolarning har biri haqida alohida-alohida tadqiqotlar olib borish milliy-ma'naviyatimizni boyitishda yetakchi manbalardan biri bo'ladi desak, mubolag'a qilmaymiz.

Navoiy "Sayyid Hasan Ardasher" xususida "Masnaviy" bitadi, tarkibband yozadi, "Soqiynoma" ning bir bandini unga bag'ishlaydi, "Majolis un-nafois" va "Nasoyim ul muhabbat" dagi fiqralarda ma'lumotlar beradi. "Holoti Sayyid Hasan Ardasher" da esa bu zotning surat va siyratini o'zgalarga ibrat darajasida ko'tarib bayon qiladi, o'z ehtiromini ifodalaydi.

Navoiy tasvirlagan Sayyid Hasan Ardasher Navoiyga zamondosh, uning qadrdoni. Adibning o'zi ta'riflaganidek, otasidek aziz bir inson edi. Shu bois asardagi ma'lumotlar haqqoniy va ishonarli.

Ma'lum bir shaxsning har jihatdan kamol kasb etishida zamonasining ulug' siymolari bilan yaqin munosablari beqiyos o'rin tutishi tarixda ko'p bor isbotlangan. Pahlavon Muhammad va Alisher Navoiy o'rtasidagi yaqinlik buning yorqin dalilidir. Pahlavon Muhammad vafotidan keyin unga atab yozilgan "Holoti Pahlavon Muhammad" asari fikrimiz isbotidir. Navoiy mazkur asari orqali buyuk zamondoshi nomini manguga abadiylashtirdi. O'rtalaridagi be'qiyos do'stlikka avlodlarga o'rnak bo'larli madhiya bitdi.

“Hamsat ul-mutahhayirin”da keltirilgan ko‘plab misollar, lavhalar Navoiy davrining birmuncha tomonlarini ochib beradi, xalq va mamlakat hayotining murakkab jihatlarini, ilmiy va badiiy ijodga aloqador masalalarni ham yoritib beradi. Shular bilan bir qatorda bu asar Navoiy bilan Jomiy do‘stligining juda chuqur va har taraflama ekanligini va bu do‘stlik haqiqiy gumanistik asoslarga tayanganligini g‘oyat yorqin aks ettiradi.

“Hamsat ul-mutahhayirin” Navoiyning Jomiyga, ular orasidagi hamjihatlikka, do‘stlikka qo‘yilgan mangu obidadirki, bu o‘z navbatida uzoq moziylarda bir jon ham bir tan bo‘lib yashagan, ijod qilgan, birgalikda pant’u namo topgan o‘zbek va tojik xalqlari qadimiy do‘stligining ham yorqin va go‘zal ifodasi, ibratli va xavasnok namunasidir.

Alisher Navoiyning uch nasriy asari —“Xamsat ul-mutahayyirin”, “Holoti Sayyid Hasan Ardasher”, “Holoti Pahlavon Muhammad” asarlari faqat Abdurahmon Jomiy, Sayyid Hasan Ardasherhamda Pahlavon Muhammadlarning hayot yo‘lini yoritgani uchungina emas, balki Navoiy biografiyasiga oid ma’lumotlarga boyligi bilan ham qimmatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub, Munshaot, Vaqfiya. MAT.20 jildlik. – Toshkent: Fan, 1998.T.14 300-b.
2. Alisher Navoiy. Majolis un-nafois.MAT. 20 jildlik. – Toshkent: Fan, 1997.T.13.283-b.
3. Alisher Navoiy. Muhokamat ul-lug‘atayn. MAT. 20jildlik.— Toshkent:Fan, 2000. T. 16. — 334 b.
4. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 13-tom. 19-b.
5. Alisher Navoiy. Nasoyim ul-muhabbat. MAT. 20 jildlik. — Toshkent: Fan, 2001. T. 17. — 521 b.
6. Alisher Navoiy. Xamsat ul- mutahayyirin. Holoti Sayyid Hasan ArdasherHoloti Pahlavon Muhammad. Nazm ul-tavoxir. MAT. 10 jildlik. – Toshkent: Fan, 1999. – T. 15. 237-b.
7. Alisher Navoiy.Qomusiy lug‘at. 1-2 jildlar ,Mas’ul muharrir Sh.Sirojiddinov.—T: Sharq, 2016.
8. Alisher Navoiy. Holoti Sayyid Hasan Ardasher.— Toshkent: Fan,1991y. 17-24 b.
9. A.Qayumov. Alisher Navoiy. “O‘zbekiston”, 2011.
10. A.Qayumov. Nodir sahifalar. Navoiyning kam o‘rganilgan ba’zi asarlari to‘g‘risida. – T: Fan, 1991.– 144 b.
11. A.Qayumov. Ishq vodiysi chechaklari: A.Navoiy ijodi haqida.– T: Adabiyot va san’at, 1985.- 257 b.
12. A.Rustamov. Navoiyning badiiy mahorati. – Toshkent: Adabiyot va san’at, 1979. – 214 b
- 13.A.Hayitmetov. TemuriylardavriO‘zbekadabiyoti. –Toshkent: Fan, 1996. – 157 b
- 14.DavlatshohSamarqandiy. Shoirlarbo‘stoni (“Tazkiratush-shuaro”dan). – Toshkent: Adabiyot va san’at, 1967. – 222 b.
- 15.I.Haqul. Navoiyga qaytish.—Toshkent:Fan,2007.—224 b.

16. I.Haqqul. Navoiyga qaytish. — T: Fan, 2007. — 227 b.
- 17.I.Sulton.Navoiyning qalb daftari. – T: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2010.
18. N.Komilov. Tasavvuf. —Toshkent:Movarounnahr— O‘zbekiston, 2009 y.- 240-43 b.
- 19.S.G‘anieva. Navoiy yodga olgan asarlar.—Toshkent,2009.
- 20.S.G‘aniyeva . AlisherNavoiy: Hayotivaijodi. Mas’ulmuharrir: A.Qayumov. –T: Fan, 1968.- 148 b.
- 21.S.G‘aniyeva . AlisherNavoiyningprozaikasarlari.- T: O‘zbekiston, 1981.- 37 b.
- 22.S.G‘aniyeva. Navoiynasrinafosati. —Toshkent,2000.
- 23.Xondamir “ Makorimul- Axloq ”—G‘afur Qulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti. Toshkent—1967 y. 94-95 b.
24. Бартолд В.В. Мир Али Шир и политическая жизнь. Сочин. В IX томах. – М: Наукаб 1964. Т.II. Ч.2.
25. 15. O‘zbek adabiyoti tarixi. Besh jildlik. J.2. (XV asrning ikkinchi yarmi). — T: Fan, 1977. — 462 b.

